

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

JABBOROV ABDUVOHID RAXIMBERDI O'G'LI

ELLINIZMNING MOHIYATI VA ELLINISTIK DAVLATLAR

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: o'qituvchi,
Norqo'ziyev Dadaxon Raxmonjonovich**

Namangan – 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ELLINISTIK DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOTI.....	7
1.1. Ellinizmning mohiyati va ellinistik davlatlarning vujudga kelishi.....	7
1.2. Ellinistik davlatlarning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti.....	18
II BOB. ELLINISTIK DAVLATLARNING MADANIY TARAQQIYOTI.....	29
2.1. Ellinistik davlatlarda din, falsafa, ilm-fan taraqqiyoti.....	29
2.2. Ellinistik davlatlarda adabiyot, san`at, me`morchilik.....	34
2.3. Ellinizm va uning Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga ta`siri.....	42
XULOSA.....	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI.....	53

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritib, mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagach, jahon hamjamiyatining teng xuquqli a'zosi sifatida xalqaro munosabatlarda faol ishtirok eta boshladi. O'zbekiston o'zaro munosabatlarda tenglik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, o'zaro foydali va teng xuquqli hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada va butun jahon miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash kabi tamoyillarga tayangan holda jahon hamjamiyati safiga dadil kirib kela boshladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida dunyo mamlakatlari orasida o'zining mustahkam o'rnini egalladi va tashqi siyosatning xalqaro huquq me'yorlariga asoslangan va jahon hamjamiyatiga asta-sekin integratsiyalashuv strategiyasiga mos keladigan huquqiy tizimini yarata boshladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov: "Ochiq demokratik davlatni qurish, bozor munosabatlarini vujudga keltirish xalqaro e'tirof etilgan konstitutsiyaviy hamda huquqiy asosda amalga oshirilmoqda. Bu asos iqtisodiyotni isloh qilish, uning keng ko'lamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun kuchli huquqiy kafolatlar va shart-sharoitlarni ta'minlab beradi", - deb ta'kidlagan edi¹.

Tarix fanining jamiyat taraqqiyotidagi rolining o'sib borishi natijasida uning oldida turgan dolzarb muammolar ko'lami aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar va jurnalistlar bilan 1998 yil 26 iyunda bo'lgan uchrashuvi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida tarixchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish asosiy vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, davlatchilikning turli tarixiy bosqichlarida

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, тараққитёт шартлари ва барқарорлик кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 279.

O`zbekiston hududida yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma`naviy hayoti masalalarini o`rganish zarurligi ko`rsatib berildi².

Zero, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek: “Tariximizga kirib kelayotgan bu buyuk marra munosabati bilan o`tgan davri mobaynida hayotimiz sifati, mamlakatimiz qiyofasi qanday o`zgarib borayotgani, qanday yutuq va natijalarga erishganimiz, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqorolik jamiyatini barpo etish yo`lida qanday sur`atlar bilan rivojlanib borayotganimizni baholash ehtiyoji tug`ilmoqda”³.

Mustaqillik yillarida vatanimiz tarixini chuqur o`rganish bilan birga, jahon mamlakatlarining taraqqiyot bosqichlarini o`rganishga, jahon tarixida vatanimiz hududida yashagan xalqlarning ishtirokini o`rganishga alohida ahamiyat qaratildi. Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o`zgarishlar jarayonida egallab turgan o`rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan xamqadam bo`lishimiz shart⁴.

Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa yurishlari vaqtdan boshlab, O`rtayer dengizining katta qismi Misr, Kichik va Old Osiyo, uning atrofidagi hududlar, O`rta Osiyoning janubiy va markaziy Osiyoning bir qismi, Hind daryosining quyi oqimigacha ularning tarixiy taraqqiyotini yangi Ellin davri boshlandi. “Ellin” tushunchasi tarix fanida birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida nemis olimi I. Droyzen tomonidan kiritildi. Droyzen bu tushunchani makedoniyalik Iskandarning bosqinchilik yurishlaridan keyingi katta tarixiy davrga nisbatan qo`lladi va uni mazmunini madaniy soha bilan chekladi.

XX asrning 50-yillar boshlaridan ko`pchilik tarixchilar Elliniz davrini siyosiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy sohalarda Ellin (g`arb) va mahalliy (sharq)

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори // Халқ сўзи. 1998 йил 28 июль.

³ Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 3.

⁴ Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 4.

hayotining sintezi deb qabul qildilar. Bu sintez qadimgi Sharqning ko'pgina hududlarini yunon-makedon istilolari oqibatida aniq tarixiy vaziyatda amalga oshdi. Ellin davri davlatchiligi, madaniyati, san'ati vatanimiz halqlari hayotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun ham mazkur mavzu dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi. Tadqiqotning xronologik chegaralari A.Makedonskiy istilolarining tugagan miloddan avvalgi 324 yildan boshlanib, miloddan avvalgi 30 yillargacha davom etgan deyarli 300 yil davom etgan davrni o'z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiq qilinish darajasi. Mavzuning ayrim jihatlari bir qator ilmiy adabiyotlarda, darsliklarda yoritib berilgan. Jumladan, Avdiev V.I., Boynazarov F.A., Boriskovskiy P.I., Bikerman E., Bongard-Levin G.M., Vipper R.Y., Gluskina L.M., Lyubchenkov Y., Reder D.G., Cherkasova E.A. kabi mualliflarning asarlarida qadimgi dunyo tarixining umumiy masalalari yoritilgan va ellin davri tarixiga ham e'tibor qaratilgan⁵ yoritilgan. Gafurov B.G., Sibukidis D.I., Djons A.X.M., Koshelenko G.A., Kobo`lina M.M., Levik P., Ranovich A.B. kabi mualliflar tomonidan esa ellinistik davlatlar taraqqiyotininng ayrim masalalari o'rganilgan⁶.

Mazkur tadqiqotda esa ellin davlatlari tarixini umumlashtirilga holda organish hamda ellin madaniyatining vatanimiz tarixida tutgan o'rnini ko'rsatib berish maqsad qilib olingan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ellinizmning mohiyatini ochib berish, ellinistik davlatlarning vujudga kelish shart sharoitlarini

⁵Avdiev V.I. Qadimgi Sharq tarixi. –Toshkent: Ўрта ва Олий мактаб давлат нашриёти, 1964. – 446 б.; Бойназаров Ф.А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 320 б.; Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества. – М.: Наука, 1987. – 188 с.; Бикерман Э. Хронология древнего мира. Ближний Восток и античность. – М.: Наука, 1975. – 336 с.; Бонгард-Левин Г.М. Древние цивилизации. – М.: Мысль, 1989. - 479 с.; Виппер Р.Ю. История древнего мира. – М.: Республика, 1993. – 511 с.; Глускина Л.М. История древнего мира. – М.: Высшая школа, 1986. – 238 с.; Любченков Ю. Древний мир и средние века. – М.: Вече, 2001. – 346 с.; Редер Д.Г., Черкасова Е.А. Қадимги Дунё тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 340 б.

⁶ Гафуров Б.Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. – М.: Высшая школа, 1980. – 184 с.; Джонс А.Х.М. Гибель античного мира. – Ростов: Феникс, 1997. – 576 с.; Занимательная Греция. – М.: Новое литературное обозрение, 2008. – 416 с.; Кошеленко Г.А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. – М.: Наука, 1979. – 164 с.; Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – 239 с.; Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – 156 б.; Ранович А.Б. Эллинизм и его историческая роль. – М.: Наука, 1999. – 169 с.

yoritish, davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlarini korsatib berish, ellin davlatlari madaniy taraqqiyotining o'ziga xos jihatlarini va uning vatanimiz madaniy taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadidir.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning asarlari tadqiqot uchun ham nazariy ham uslubiy jihatdan katta ahamiyatga ega. I. A. Karimovning tarix fani oldida turgan dolzarb vazifalar, jahon mamlakatlari tajribasini o'rganish va ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish to'g'risidagi fikrlari mazkur tadqiqot uchun ham nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u ellinizmning vohiyatini ochib berish, ellinistik davlatlarning vujudga kelish shart sharoitlarini yoritish, davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlarini korsatib berish, ellin davlatlari madaniy taraqqiyotining o'ziga xos jihatlarini va uning vatanimiz madaniy taraqqiyotiga ta'sirini o'rganishga ko'maklashadi. Tadqiqotdan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tizimida ma`ruza-seminar mashg'ulotlarini uyushtirish va o'tkazishda hamda maxsus kurslarni olib borishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Tadqiqot kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining umumiy hajmi 55 betni tashkil etadi.

I BOB. ELLINISTIK DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOTI

1.1. Ellinizmning mohiyati va ellinistik davlatlarning vujudga kelishi.

Aleksandr Makedonskiyning Sharq yurishlari o'n yil (334-324) davom etdi. Bu harbiy yurish oqibatida A.Makedonskiy Bolqon yarim orolidan to Sharqqa cho'zilib ketgan Hindistongacha bo'lgan yerlarni o'z qo'liga kiritgandi. A.Makedonskiy qo'lga kiritgan ana shu yerlarning katta qismi – Yunoniston, Makedoniya, Sharqiy O'rta Yer dengizi mamlakatlari, Eron, O'rta Osiyo va unga tutash hududlar ellinistik davlatlar deb atalgan.

Ellinistik davlatlar tarixi esa A.Makedonskiy istilolarining tugashidan boshlanib (eramizdan avvalgi 324 y.) eramizdan avvalgi 30 yillargacha davom etgan. Deyarli 300 yilni o'z ichiga oladi. Ellinizm deb atalgan davrning tugashi eramizdan avvalgi 30 yillarda, ya'ni Ptolomeylarning so'ngi mustaqil podsholigi bo'lgan Misrning Rim tomonidan istilo etilishi bilan yakun topadi⁷.

Bu mavzuni o'rganishdan avval, shu narsaga e'tibor berish kerakki, ellinizm tushunchasi haqida olimlar o'rtasida yagona fikr yo'q. «Ellinizm» degan termini birinchi bo'lib nemis tarixchisi I. Droyzen 1833-1834 yillarda o'zining «Ellinizm tarixi» deb atalgan kitobida qo'llagan⁸. I.Droyzenning o'sha kitobida keltirilishicha ellinizm tushunchasi G'arb ellin madaniyatining Sharq xalqlari o'rtasida keng yoyilishini tushunilgan. Hozirgi davrda G'arb olimlari ellinizm haqidagi bunday tor doiradagi tushunchani rad etishmoqda.

G'arb olimlari bu masalaga alohida e'tibor berishib, yunonlarning sharqqa ta'sir etgan sivilizatsiyasi faqat madaniy bo'lmay, balki yana iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohada bu munosabat doirasida ham ta'siri kuchli deb baho berdilar. Rus tarixchilaridan V.S.Sergeev, S.I.Kovalev, A.B.Rachnovichlar ham bu

7

⁸ Бойназаров Ф.А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.

masala ustida to'xtashib, ellinizm qulchilik ellin davlatlari taraqqiyotida yangi progressiv bosqich ekanligini aytganlar⁹.

Yana bir fikr mavjud. Unga ko'ra hozirgi davrda ko'pchilik olimlar tarixchi K.K.Zel'inaning fikrini qo'llab-quvvatlamoqdalar. Uning fikriga ko'ra, A.Makedonskiy boshchiligidagi Sharqga borgan yunonlarning sharq xalqlariga, o'z navbatida sharq xalqlarining yunonlarga o'zaro ta'siri bo'lgan. Bu xalqlarning, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarining bir-biriga ta'sir etishi hamda bir-biriga qo'shilib ketishi davri bo'ldi. Natijada bu ellin davlatlarida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy "Yangi" munosabatlar bu davlatlar uchun mahalliy aniq o'ziga xos varianti deb hisoblash mumkin.¹⁰

O'rta dengiz sharqidagi ellin davlatlarining eramizdan avvalgi XII—I asr tarixi davrida bu davlatlarning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishining o'ziga xos tomonlari bo'lgan. Ana shunday o'ziga xos tomonlariga ega bo'lgan ellin davlatlarida xalq ommasini iqtisodiy majburiyatlarsiz, to'g'ridan-to'g'ri davlat hokimiyati ya'ni podshoga qaram qilingan. Eng ko'p qaram qilingan guruh - bu dehqon jamoalari bo'lib, ular podsho (davlat) xazinasiga yer solig'i yoki jon solig'i tarzida soliq to'lab turganlar. Ellinistik davrning yana bir muhim xususiyati o'z ichki mustaqilligini saqlab qolgan shahar davlatlarning mavjudligidir. Ellinistik davrda ularni soni kamaymay, aksincha ko'payib borgan. Bu shahar davlatlarning hududida yashovchi aholining katta qismi qishloq aholisi bo'lib, ular fuqorolik huquqiga ega bo'lmaganlar. Ularni shahar mansabdorlari nazorat qilib turgan. Shahar davlatlarning o'zi esa o'z navbatida podsho amaldorlari nazoratida bo'lganlar¹¹.

Shaharlarda hunarmandchilik rivojlanib borgan. Hunarmandchilik bilan asosan erkin yollangan kishilar, shuningdek qullar shug'ullanganlar. Ularni ekspluatatsiya qilish kuchayib borgan.

⁹ Виппер Р.Ю. История древнего мира. – М.: Республика, 1993. – С. 286.

¹⁰ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ellinizm>

¹¹ Бойназаров Ф.А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 125.

Ellinizm davri uchun, ayniqsa eramizdan avvalgi II-I asrlar uchun xarakterli jihati shuki, bu davrda sinfiy kurash keskinlashib ketadi. Natijada, dehqonlar shahar hunarmandlari ommaviy ravishda o'z joylarini va kasbkorlarini tashlab keta boshlaganlar. Bularni hammasi dehqonlar, hunarmand va qullarning ommaviy qo'zg'olonlariga sabab bo'lgan. Bu qo'zg'olonlar ellinistik davlatlarni juda qattiq larzaga soldi.

Ma'lumki, eramizdan avvalgi 323- yili A.Makedonskiy vafot etganidan keyin makedoniyaliklar o'zlari bosib olgan hududlarini harbiy kuch yordamida qo'lda saqlab qolish siyosatini tutganlar. Shu maqsadda ular o'zlari qo'lga kiritgan barcha hududlarni mayda bo'laklarga bo'lib yubordilar. Bu hududlarda Ptolemeylar sulolasi hukmronlik qilganlar.

Makedonskiy lashkarboshilaridan biriga Babil (Mesopotamiya) va uning sharqidagi davlatlar tegdi. Shundan boshlab salavkiylar sulolasi boshlanadi.

A.Makedonskiyning Ptolemey degan sarkardasiga esa Misr va uning G'arbidagi Kirenaika, Osiyodagi Kipr oroli, janubiy Suriya, Finikiya, Kichik Osiyoning janubidagi va G'arbidagi sohilni katta qismi, u yerdagi Yunon shaharlari, Egey dengizidagi Ptolomeylar davlatiga qarashli bo'lgan bu mulklar o'zlarini eski mahalliy boshqarmasini saqlab qolgan. Lekin bu eskicha mahalliy boshqaruvlar Ptolemeylar tomonidan qo'yilgan noiblar nazorati ostida ishlaganlar¹².

Ptolemeylar katta flotga egalik qilganlar. Miloddan avvalgi III asrda O'rta dengizning sharqiy qismidagi dengiz yo'llarini nazorat qilganlar. Shuningdek, Qizil dengiz orqali sharqqa boradigan suv yo'llarini o'z qullarida saqlaganlar.

Ptolemeylar davlatining markazi Aleksandriya shahri bo'lib, podsho saroyi shu shaharda joylashgan. Ptolemeylar davlatida podsho bilan malika katta obro'-e'tiborga ega bo'lib, ularni shaxsi ilohiylashtirilgan. Podshoga qarashli barcha amaldorlar ham shu saroyda istiqomat qilganlar. Bu amaldorlar podshoning «qarindoshlari», podshoning «do'stlari» degan faxrli unvonlarga ega bo'lganlar¹³.

¹² Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – С. 96.

¹³ Редер Д.Г., Черкасова Е.А. Кадимги Дунё тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 256.

Podsho saroyidagi eng katta mansab moliya ishlari sardori - dioyket (boshqaruvchi) mansabi bo'lgan. Podsho eng yuqori moliya ishlari sardori mansabiga saroydagi amaldorlar orasidan tanlab qo'yar edi. Bu mansabini egallagan shaxs mamlakatni idora qilshda podshodan so'ng ikkinchi shaxs o'rnida bo'lgan. Bu hududdagi ellinistik davlatlar ichida eng qudratlisi Misr bo'lgan.

Aleksandriya podsho saroyi joylashgan shahar bo'lish bilan birga, sharqiy O'rta dengiz mamlakatlari uchun savdo - sotiq, hunarmandchilik va madaniy markaz ham bo'lgan. Davrimizgacha yetib kelgan ko'pdan-ko'p yodgorliklar Misr xalqining qadimiy hayotini yoritishga yordam beradi. Misrning quruq iqlimi bu yodgorliklarni yaxshi saqlanishiga imkon bergan. Davrimizgacha saqlanib kelgan ellinistik davr yodgorliklari ellinistik dunyoning boshqa hech bir mamlakatida Misrdagidek saqlanib qolmagan. Shuning uchun ayrim ellinistik mamlakatlar tarixini o'rganishni Misr tarixidan ko'rib chiqish ma`qul ko'rildi. Misrning asosiy hududdi bo'lgan ulug' Nil vodiysi tarixi ellinistik davrda ham o'zining administrativ territorial bo'linishini eskicha nomlarga (viloyatlar) bo'linishini saqlab qolgan. Misr nomlarga (viloyatlarga) bo'lib boshqarilgan ekan, nomlarni o'zi, o'z navbatida toparxiyalarga, toparxiyalar esa komalarga (qishloqlarga) bo'lingan¹⁴.

Ellinistik davrda mahalliy xalq misrliklar faqat eng past lavozimlardagina ishlay olganlar. Yuqori mansablarga misrliklar qo'yilmas edi. Jumladan koma (qishloq) oqsoqoli, koma mirzasi (kotibi) kabi arzimas lavozimlardagina ishlay olganlar xolos. Nomlar (viloyatlar) toparxiyalarni boshqarish esa yunonlar yoki ellinlashgan chet elliklar qo'lida bo'lgan¹⁵. Masalan, har bir nom tepasida podsho tomonidan tayinlangan strateg, devonxonasi va arxivini mirza (munshiy) podshoning bosh kotibi shuningdek, moliya, xo'jalik ma`muriyati tepasida iqtisodchi turgan. Ptolemeylar istilochilik huquqiga asosan butun Misr yerining egalari hisoblanganlar. Misr yerlarining katta qismini dehqonlar podsho moliya

¹⁴ Бойназаров Ф.А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 130.

¹⁵ Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 137.

ma`muriyati amaldorlarining nazorati ostida ishlaganlar. Bunday yerlar “podsholik yeri” deb yuritilgan¹⁶.

U Misr yerlarining qolgan qismi, harbiy qismlarga, diniy kohinlarga, mansabdor shaxslar va shu qabilarga foydalanish uchun berilar edi. Miloddan avvalgi III asrda bunday yerlar kimga tegishli bo`lishiga qarab kleruxlar yeri, ibodatxona yeri, in`om qilingan yer deb atalardi. Miloddan avvalgi II asrga kelib bunday yerlar umumiy bir nom bilan “Kechib berilgan yer” deb yuritiladigan bo`ldi. Misr aholisining ko`pchiligi Misr dehqonlari (Laon odamlar) va podsho dehqonlaridan iborat bo`lgan. Shuni e`tiborga olish kerakki, podsho dehqonlari orasida podsholik yerini ijaraga olgan boylar ham bor edi. Lekin ular ozchilikni tashkil etib, asosan mehnat qiladigan dehqonlar (laoylar) bo`lgan. Asosan, bu dehqonlarni barchasi qishloqlarda yashaganlar. Qishloqda dehqonlar eskicha jamoa tashkilotiga birlashgan bo`lib, hukmron ptolemeylar eski jamoa tartibini ataylab saqlab qolganlar¹⁷. Chunki bu tartib (jamoat) bilan soliq undirish, dehqonlarni turli xil jamoat ishlarida ishlatishni osonlashtirar edi.

Dehqonlar yerdan foydalanish huquqini qo`lga kiritish uchun podsho moliya ma`muriyati bilan ma`lum muddatga shartnoma tuzishga majbur edilar. Misr dehqonlari bug`doy, zig`ir va boshqa qishloq xo`jalik ekinlarini ekkanlar. Dehqonchilik qilish uchun urug`larni kuzda qaytarib berish sharti bilan qarzga davlat omborlaridan berilar edi. Ekinlarni ekishdan tortib to uni yig`ib-terib olinguncha bo`ladigan barcha ishlar podshoning moliya xizmatchilari va politsiyaning qattiq nazorati ostida o`tgan. Hosil yetilgach podsho dehqonlari uni eng yaqin podsho xirmoniga olib borishlari, nazorat ostida yanchishlari, shu yerni o`zida ko`pdan-ko`p natura soliqlarni to`lashlari kerak bo`lgan, To`lanadigan soliqlarni eng kattasi yer solig`i bo`lgan. Ayni paytda dehqonlar qarz olgan urug`lik qarzini qaytarishlari lozim bo`lgan. Hamma to`lovlar to`lab bo`lingach, hosilni qolgan arzimas qismi dehqonlarga qolar edi. Dehqonga tekkan hosilni bu arzimas qismi dehqonni yarim och-yarim to`q yashashiga zo`rg`a yetar edi.

¹⁶ O`sha manba... – B. 138.

¹⁷ Кошеленко Г.А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. – М.: Наука, 1979. – С. 164.

Bunday hol dehqonlarni noroziligiga sabab bo'lar edi. Podsholik yerlaridan to'plangan daromadlar ko'plab chet ellarga sotilgan. Chunki Misr g'alla yetkazib beradigan eng boy o'lka bo'lib, ko'pchilik qo'shni davlatlarni g'alla bilan muntazam ta'minlab turgan.

G'alla Misr davlati, Ptolemeylar podsholigining asosiy daromadi bo'lgan. Podsholik yeridan tashqari, harbiy xizmatchilarni lavozim va xizmatlariga qarab yer bilan ta'minlanar edi. Harbiy xizmatchilarga berilgan bu yerlar kleruxlar deb atalib, ular soliqlardan ozod etilganlar¹⁸. Kleruxlarni yerlarida dehqonlar va qullar ishlaganlar.

Misrda yerlarni katta qismi ibodatxona (kohinlar) qo'lida to'plangan. Ibodatxona yerlarida podsho dehqonlari va qullar mehnat qilganlar. Bu yerlar ham katta imtiyozlarga ega edi. Lekin bu yerlardan keladigan daromadni arzimagan qismigina podsho xazinasiga tushar edi. Misr yerlarida dehqonchilikdan tashqari, yer osti konlarini ishlash, hunarmandchilik ishlari, ichki va tashqi savdo sohalarida ham katta daromadlar olar edilar. Bu sohalardan keladigan daromadlar ham ptolemeylar xazinasiga tushar edi. Ptolemeylar soliqlar, boylik keltiradigan monopoliya (yer osti konlari, korxonalar)ni "Kim oshdi" qilib, ma'lum muddatlarga ijaraga berardilar. To'da-to'da boylar bu huquqni sotib olib, podsho xazinasiga eng ko'p soliq yig'ib berar yoki monopol to'varlarni ishlab chiqarish va sotishdan kelgan eng ko'p foydani topshirar edilar. O'sha vaqtdagi ptolemeylar hukmronligi o'stida bo'lgan Misrda sotib olingan qullar mehnatiga zarurat yo'q edi. Chunki u yerdagi (qullar) dehqonlar, hunarmandlarni quldorlik uslubida ekspluatatsiya qilinar edi.

Ptolemeylarga buysungan Finikiya, Suriya, Pergam, Yunoniston kabilarda esa sotib olingan qullar mehnatidan keng foydalanganlar. Misrda sotib olingan qullar mehnatidan nisbatan kam foydalanish bu Misrning o'ziga xos bo'lgan mahalliy hususiyati edi. Ellinistik davlatlarga Ptolemeylarga qarashli hududlardan tashqari yana salavkiylar podsholigi hukmronlik qilgan hududlar ham qaraydi. Miloddan avvalgi III asrda ellinistik dunyo hududni katta qismini Salavkiylar

¹⁸ Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – С. 98.

podsholigi nazorat qilgan. Salavkiylar podsholigi Ptolemeylar davlatiga nisbatan bir muncha keyinroq tashkil topgan. Salavkiylar podsholigi O'rta yer dengizini O'rta Sharq mamlakatlari bilan bog'lovchi karvon va suv yo'llarida hukmronlik qilardilar. Shuningdek, Markaziy Osiyo va Hindiston orqali hatto Xitoy bilan savdo-sotiq qilardilar. Bu savdo-sotiqda Salavkiylarning Ptolemeylardan iborat raqobatchilari bo'lib, ular janubiy Suriyadagi va Qizil dengizdagi savdo yo'llarini o'z qo'llarida saqlar edilar¹⁹.

Salavkiylar podsholigida yerlar tub podsho yerlaridan iborat bo'lib, bu yerlarni qaram jamoa dehqonlar ishlar edilar. Ularni ham laoy deb atardilar. Ular podsho moliya amaldorlarini nazorati ostida ushlab, to'plangan hosilni o'ndan birini podsho xazinasiga to'lar edilar. Ularni g'aznaga to'laydigan to'llovlari ptolemeylarnikidan kamroq edi. Sababi, salavkiylar o'zlarining g'oyat katta hududlarini ptolemeylar kabi o'zlashtira olmagan edilar. Shuning uchun ular asosiy aholi ommasi bilan ko'p darajada hisoblashishlari lozim edi.

Ptolemeylardagiga o'xshab, salavkiylarda ham turli ko'rinishdagi kechib berilgan yerlar bo'lgan. Bu yerlarning egalari ptolemeylarga qaraganda o'z yerlaridan mustaqilroq foydalanganlar. Salavkiylardagi ibodatxonalaridagi, mu'tabar kohinlarga qarashli hududlar ko'pincha o'ziga mustaqil bo'lgan. Yana o'ziga mustaqil bo'lgan qabilalar, davlat birlashmalari salavkiylarga rasman buysunsalarda, o'z oldilariga mustaqil edilar. Salavkiylar davlati esa ularning madadiga suyanar edilar. Umuman, salavkiylar hududini egasi bo'lgan podsho Orontdagi Antioxiyada turgan ptolemeylar kabi salavkiylarda ham podsho va malika ilohiylashtirilgan. Podshoning yordamchisi «ishlar mudiri» unvoniga ega bo'lib, mamlakatni boshqarishda katta rol o'ynagan. Salavkiylar dastlabki vaqtlarda Mesopotamiyaning sharq tomoni – Eron va O'rta Osiyoda keng hududlarga egalik qilar edilar. Salavkiylar podsholigi qabila va xalqlarning quramasi bo'lib, o'ziga nom qilib oladigan biron asosiy elati yo'q edi. Shuning uchun mamlakatni idora qiladigan podsho sulolasi nomi bilan atalgan. Davlat tuzilishida salavkiylar ptolemeylar kabi mahalliy va grek makedon tajribasidan

¹⁹ Редер Д.Г., Черкасова Е.А. Қадимги Дунё тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 273.

foydalandilar. Ular ma`muriy jihatdan satrapliklarga bo`linishini saqlab qolganlar. Lekin ularni tepasiga podsho noiblari bo`lmish strateglarni bosh qilib qo`ydilar. Salavkiylardagi satrapliklar gipparxiyalarga bo`linib, ularning tepasida gipparxlar bosh bo`lib turar edi. Ellinistik Misrda bo`lgani singari, butun mamlakat grek shaharlariga va xoraga bo`linadi. Xoraning butun yeri prinsip jihatdan podsholik yeri edi. Lekin salavkiylar davlatidagi Yunon shaharlari va xoraning tarkibi ptolemeylar davlatidagiga nisbatan ancha murakkab edi. Salavkiylar o`z davlatini mustahkamlash maqsadida yunoncha tipda ko`p shahar-qal`alar barpo etdilar. Bu shahar-qal`alar Egey dengizidan tortib, to Hindistongacha butun mamlakatda savdo va strategik muhim bo`lgan joylarda qurilgan edi. O`rta Osiyoda ham Aleksandr Makedonskiy va uning vorislarining asosiy shaharlari qurilgan edi²⁰.

Salavkiylar mamlakatni boshqarishda armiyaga suyanar edilar. Armiya tarkibi esa makedonlar, ellinlashgan fuqorolardan iborat bo`lgan. Salavkiylar podsholigida qulchilik rivojlangan. Qullarni qattiq ekspluatatsiya qilinar edi. Ayni paytda mahalliy dehqon (laoy)ni ham ekspluatatsiya qilingan²¹. Mahalliy dehqonlarni busiz ham og`ir ahvoli istilochilar qo`lida yanada battarroq og`irlashgan edi. Salavkiylar soliqlarni ko`pchiligini pul bilan yig`ib olishni afzal ko`rishar edi. Lekin yer solig`i esa natural holda olinar edi. Salavkiylar bilan Ptolemeylar davlatidagi soliqlar bir-biriga o`xshash bo`lgan. Salavkiylar davlatining o`ziga xos tomoni shundaki, Salavkiylar davlatining chegaralari hech qachon barqaror chegara bo`lmagan. Meloddan avvalgi III asrda (III asr o`rtalari) da Salavkiy podsholidan O`rta Osiyo, Eron ajrab chiqqan edi. Meloddan avvalgi III asr o`rtalarida mahalliy aristokratlar ko`magi bilan O`rta Osiyodagi salavkiylar armiyasi orasida qo`zg`olon kelib chiqdi. Bu qo`zg`olon natijasida O`rta Osiyo salavkiylardan ajrab chiqdi va bu yerga mustaqil ellinistik Yunon-Baqtriya podsholigi tashkil topdi. Ayni O`rta Osiyo bir vaqtda (Kaspiy dengizi bilan Eron ko`rfazi orasida) Erondagi mahalliy qabilalarning ham qo`zg`oloni bo`ladi. Bu ozodlik harakati tufayli bu yerda Parfiya podsholigi tashkil topdi. Bu qo`zg`olon

²⁰ Виппер Р.Ю. История древнего мира. – М.: Республика, 1993. – С. 385.

²¹ Гафуров Б.Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 77.

salavkiylarni Baqtriyadagi noibi Diodotga, salavkiylar podshosiga (Antioxiyada turar edi) qarshi qaratilgan. Bu qo'zg'olon Yangi Yunon-Baqtriya davlati tuzilishiga olib kelishi bilan Yunon-Makedon yuqori tabaqasining mavqeini ham mustahkamlagan.

Salavkiylar davlati endi tashkil topayotgan vaqtda uning g'arb tomonida bir necha kichik-kichik davlatlar ajralib chiqib, mustaqil bo'lib olgan edilar. Ana shunday davlatlar orasida ellinistik Pergam davlati ko'zga ko'rinarli rol o'ynay boshlagan edi²². Bu ellinistik Pergam podsholigi ellinistik dunyo davlatlari orasida savdo, hunarmandchilik, madaniy markaz rolini o'ynagan. Pergam podsholigidagi serhosil yerlar uning iqtisodiy rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar ochgan. Pergam podsholigining markazi bo'lgan Pergam shahri Yunon polis davlati hisoblanar va atrofdagi mustaqil ellin davlatlari undan namuna olar edilar. Bu podsholikni markazi Pergam shahridan yana bir necha Yunon shaharlari bor edi. Podsholikni bu aytilgan shaharlaridan tashqari-xora ya'ni qishloq joylari ham mavjud bo'lib, xora ya'ni qishloq joylaridagi ekin ekiladigan yerlar podsholikka qarar edi. Xora ya'ni qishloq joylardagi yerlarda qo'shchi dehqonlar ishlar, ularning ahvoli esa ellinistik Misr dehqonlarining ahvoliga o'xshab ketar edi. Lekin ptolemeylardan Pergam davlatining farqi shuki, Pergam podsholigi ustaxonalarida antik qullar ishlar edi. Shuning uchun Pergam podsholigi ellinistik davlatlar ichida qullar mehnatidan eng ko'p foydalanadigan taraqqiy etgan davlat hisoblanar edi. Miloddan avvalgi III asrda Pergam mahalliy Attaliylar Yunon sulolasi qaror topdi.

Ellinistik mustaqil davlatlardan yana biri Makedoniyadir. Makedoniya boshqa ellin davlatlaridan farq qilib, urushlar, alg'ov-dalg'ovlar girdobini o'z boshidan ko'proq kechirgan davlatdir. Aholining Sharq o'lkalariga ketib qolish natijasida Makedoniya ancha zaiflashib qolgan edi. Makedoniyaning o'ziga xos tomoni shundaki, boshqa ellin davlatlaridan farq qilib, unda antik mulk formasi yaxshi rivojlangan²³. Bu vaqtga kelib Makedon armiyasidagi getayrlar, endi

²² Гафуров Б.Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 126.

²³ Редер Д.Г., Черкасова Е.А. Қадимги Дунё тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 302 .

«podsho do'stlariga» aylangan edilar²⁴. Makedoniyalik amaldorlar podsholik yerlaridan yer uchastkalarga egalik qilishlari bilan birga yana o'zlarini antik xususiy mulk va yerlari ham bor edi. Yana yerlar harbiy xizmatchilarga va «podsho do'stlariga» kechib berilar edi. Bu kabi va boshqa antik mulk formalari makedon amaldorlarini podshoga nisbatan mustaqillik mavqeini egallashga imkon berar edi. Jumladan, Makedoniya qo'shin yig'inlarida amaldorlar o'z mustaqilliklaridan foydalanib, Makedoniya davlati taxt vorislarini, lashkarboshilar kabi masalalarni hal qilishda katta ta'sir ko'rsatar edi. Makedoniyada antik mulk formalari mavjud bo'lsada, shu bilan birga boshqa ellinistik davlatlarda bo'lgani kabi podsholik yerlari ham bor edi. Bu yerlarni bir qismi harbiy xizmatchilarga, aristokratlar va “podsho do'stlari”ga kechib berilgan edi. Mamlakatni boshqarishda podsho hal qiluvchi rol o'ynashi bilan birga lashkarboshi va boshqa ma'muriy ishlarni o'z qo'liga to'plab o'lgan edi. Lekin boshqa ellin davlatlarida bo'lgani kabi podshoni, malikani ilohiylashtirish yo'q edi. Makedoniyaning tashqi siyosati faqat Yunonistonda, Egey dengizida hukmronlik qilishga qaratilgan edi²⁵.

Yunoniston ham Makedoniya kabi ko'p yillik urushlar, alg'ov-dalg'ovlarni o'z boshidan kechirayotgan davlat edi. Axolini chet elga muxojir bo'lib ketganligi tufayli Yunoniston o'z boshidan siyosiy inqirozni kechirib, zaiflashib qolgan edi.

Miloddan avvalgi III asr Yunonistonning o'ziga xos xususiyati shunda ediki, miloddan avvalgi IV asrdan boshlangan siyosiy markazlarning endi rivojlangan hududlardan qoloq o'lkalarga ko'chishi miloddan avvalgi III asrda ham davom etmoqda edi. Miloddan oldingi 363-yilda birinchi marta tilga olingan Etoliyadan tashqari yana miloddan oldingi 280-yili Axeya ittifoqi ham tashkil topdi²⁶. Bu Etoliya, Axeya ittifoqlari meloddan oldingi III-II asrlarda Yunonistonda muhim rol o'ynaganlar. Yunonistonda Etoliya ittifoqi O'rta Yunonistonning qoloq tog'lik territoriyalarida tashkil topdi. Tashqi xavfdan o'zlarini mudofaa qilish zarurati ularni ittifoqqa birlashtirgan va ularga qo'shilgan

²⁴ Бойназаров Ф.А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 277.

²⁵ Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – С. 102.

²⁶ Авдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. –Тошкент:Ўрта ва Олий мактаб давлат нашриёти, 1964. – Б. 358.

qo'shni qabilalar hisobiga kuchaygan. Etoliya ittifoqi federatsiya bo'lib, unga qo'shilganlarni barchasi teng huquqli bo'lganlar. Federatsiyaning poytaxti Fern shahri bo'lib, federatsiyaning oliy boshqarish organi (sinod)²⁷ edi. Sinod markaz Fern shahrida har ikki yilda bir to'planib, Etoliyani oliy mansabdorlarini saylar edilar. Davlat tepasida bir yilga saylab quyiladigan strateg turgan. Bir yildan keyin uni vakolati tugagach, uni yana qaytadan saylash mumkin edi. O'n ikki kichik Axeya manzilgohlari ancha oldin ittifoqqa birlashgan edilar. Biroq miloddan oldingi IV asrning uchinchi choragida Yunonistonda hukmronligi o'rnatilishi bilan birinchi Axeya ittifoqi tarqab ketgan edi. Miloddan avvalgi 280-yili Makedoniya hukmronligiga qarshi kurash zarurati tufayli Axeya ittifoqi ikkinchi marta qaytadan tashkil topdi. Axeya ittifoqiga kirganlarni barchasi Etoliyadagi kabi teng huquqli bo'lib, tezda kuchli ittifoqqa aylandi. Korinf Axeya ittifoqini tayanchi va yetakchisi edi. Axeya ittifoqining markazi Egion shahri bo'lib, ittifoqni shu shahardan turib boshqarilgan. Axeya ittifoqining ham Etoliyani idora qilish tartibiga o'xshasada, lekin Axeya ittifoqini boshqarishda o'ziga xos tomonlari bor edi. Axeya ittifoqida boy, davlatmand tabaqalar hal qiluvchi rol o'ynardilar. Boy, davlatmand tabaqalar bir tomondan Makedoniyadan o'z mustaqilliklarini saqlab qolish uchun kurash olib borsalar, ikkinchi tomondan kambag'al va qullarni qo'zg'olonidan qo'rqib, makedon podshosi madadiga, uni qo'llab-quvvatlashiga muhtoj edilar. Axeya ittifoqi tobora kuchayib borgan. Ana shu kuchayib borish jarayonida ittifoq hududidagi shaharlardan Makedoniya armiyasini quvib yuborish imkoniyatini berdi. Bunday muvaffaqiyatga axeyaliklar o'zlarini siyosiy arbobi strateg Arat degan odam boshchiligida erishdilar. Yunonistonning eng qadimgi kuchli davlatlaridan bo'lgan Afina, Sparta davlatlari miloddan avvalgi III asrda ilgarigi shon-shuhratini yo'qotib, zaiflashib qolgan bo'lsalarda, ular Axeya yoki Etoliya ittifoqiga kirmay, ilgarigi o'z mustaqilliklarini saqlab qolayotgan edilar. Sparta davlatidagi yer-mulklar o'zigina eng boy xonadonlar qo'lida haddan tashqari ko'p to'planib, ularni yer-mulklarida illotlardan tashqari sotib olingan qullar periyeklar ham ishlar edilar. Spartaliklarni ancha qismi yersiz, armiya ham

²⁷ Sinod - ya'ni xalq yig'ini

ilgarigi shon-shuxratini yo'qotib, yollangan armiyaga aylangan edi. Xullas, Sparta davlati kuchsizlanib qolgan davlatga aylanib bormoqda edi. Sparta davlatini bundan ham zaiflashib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun kurash tobora qizib bordi. Buning uchun Sparta davlatida bir qator islohotlar o'tkazish zaruratini kun tartibiga qo'ymoqda edi.

1.2. Ellinistik davlatlarning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti.

Yunon-makedonlar kelishi arafasida Misrning iqtisodiyoti so'ngi tosh davri ibtidoiy texnikasi darajasida bo'lib, faqatgina qisman takomillashtirilgan mis va bronza qurollariga asoslangan edi. Yunon-makedonlar kelishi bilan mamlakat xo'jaligida haqiqiy to'ntarish bo'ldi: qishloq xo'jaligida temir mehnat qurollari paydo bo'ldi, Bobildan seyalka olib kellindi. Qishloq xo'jaligida yangi texnik moslamalar vino va zaytun yog'ini olish uchun vintli pres (Arximed vinti)dan foydalana boshlanishi dehqonlarni mehnatini yengillashtirdi. Yangi ekinlar paydo bo'ldi va ishlov beriladigan yer-maydonlarining hosildorligi keskin o'sdi. Firavn Nexo kanali qayta tiklandi, tashlab qo'yilgan ko'plab yerlar o'zlashtirilib, irrigatsiya inshootlari qayta ishga tushirildi.

Hunarmandchilik shaharlarda to'planib, qishloq xo'jaligida qaraganda bu sohada qul mehnati keng qo'llandi. Hunarmandchilik mahsulotlari bozor uchun ommaviy ravishda ishlab chiqarildi. Kemasozlik uy-joy va jamoat binolarini qurilishi, metal va keramik idish-tovoqlar, gazlamalr, mebellar, zargarlik buyumlari tayyorlash keng rivojlandi. Yuqori sifatli hunarmandchilik mahsulotlari eksport qilindi.

Ptolemey I savdo-hunarmandchilik, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida o'z tanga pullari oltin stater, kumush tetradraxma va mis obollarni zarb qila boshladi. Oltin va kumush qazish, tanga zarb qilish, turli xil pul ayirboshlash davlat monopoliyasiga aylantirildi hamda, chet el tanga pullarini ishlatish taqiqlandi. Misr iqtisodiyoti va tashqi savdosida o'ziga xos qog'oz vazifasini bajargan papirusni ishlab chiqarish ham davlat monopoliyasiga aylantirildi.

Ptolemey I va Misrni boshqargan uning vorislari (Ptolemey II, Filadelf III, Everget III, Filopator IV, Epifan V) deyarli yuz yil davomida faol tashqi siyosat olib borib, Ellin dunyosida yetakchilik qilishga da'vo qildilar. Ptolemey V Epifanning er. avv. 180-yil o'limidan keyin tashqi siyosatda qiyinchiliklar tug'ila boshlandi, tushkunlikning uzoq davri boshlanib, miloddan avvalgi 30-yilda Rim istilosi bilan tugallandi²⁸.

Er. avv. III asr o'rtalarida Misr kuchli harbiy flot va qo'shinga ega edi. Ptolemeylarning asosiy raqibi Makedoniya, Bobil va Kichik Osiyodagi ba'zi davlatlar edi. Ptolemey IV Filopator davri (er. avv. 222 – 205-yillar) Misr tashqi siyosiy yutuqlarining eng oliy nuqtasi bo'ldi. Misrning mavqei Old Osiyoda kuchayib ketdi, lekin bu vaqtinchalik edi.

Er. avv. 70-yillardan boshlab, Rim davlati Misrning ichki ishlariga faol aralasha boshladi. Ptolemey sulolasining bir necha vakillari Rim yordami bilan hokimiyatni boshqardilar. Sulolaning so'ngi vakili Kleopatra VII ham rimliklar yordamida taxtga keldi.

Salavka davlati gullab-yashnagan davrida Iskandarning Osiyodagi sobiq mulklarini katta qismini o'z tarkibiga olgan edi. Bu bepoyon hududda turli iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bosqichida turgan etnik va til jihatidan olaquroq bo'lgan xalqlar joylashgan edi. Salavka davlatida yunon va makedonlar podsho boshchiligida hukmron tabaqaga aylandilar, ular barcha oliy hokimiyat lavozimlarini egallab oldilar hamda qo'shinning asosiy qismini tashkil etdilar.

Mahalliy zodagonlar hokimiyat boshqaruvida deyarli ishtirok etmadilar. Faqat Bobil shaharlarining fuqaro-ibodatxona jamoalari ma'lum bir imtiyozlardan foydalandilar²⁹.

Salavkiylar davlati aholisining asosiy qismi jamoachi dehqonlardan iborat edi. Bu jamoalar podsho foydasiga pul va natural majburiyatlarni o'tar edilar. Jamoachi dehqonlar shaxsan erkin edilar, lekin davlat hokimiyati dehqonlarni asta-sekin qaram qila boshladi. Bu ularni yerga biriktirib qo'yishda ko'rinadi. Davlat

²⁸ Любченков Ю. Древний мир и средние века. – М.: Вече, 2001. – С. 227.

²⁹ Кошеленко Г.А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. – М.: Наука, 1979. – С. 93.

yerlari ikki qismga bo'lingan edi. Bir qism yerlar podshoning shaxsan o'ziga tegishli yerlar, ikkinchi qismi shaharlar, mahalliy zodagon-hokimlar, qabilalar va jamoalarga tegishli bo'lib podsho tomonidan nazorat qilinar edi.

Davlatning butun hududi satrapliklarga bo'lingan bo'lib, undan kichik mamuriy birliklar yeparxiya va giparxiyalar edi. Satraplik boshida satrap (Antiox III davrida-Strateg) turib, u fuqarolik va harbiy hokimiyatni amalga oshirar edi. Moliya muassasi esa mustaqil edi.

Salavkiylar davlatida O'rta Osiyo va Eron hududlari muhim o'rin tutar edi. Salavk I davrida uning o'g'li va merosxo'ri Antiox I (er. avv. 280 – 261-yillar.) bu hududlarni boshqarar edi. Antiox I Salavkani Spitamenning qizidan bo'lgan o'g'li edi. O'rta Osiyoda sulola hokimiyatini mustahkamlash uchun yangi shaharlar va harbiy manzilgohlar qurildi, eskilari qayta tiklandi (Marv vohasi devor bilan to'liq o'rab olindi).

Antiox I davridan keyin er. avv. III asr o'rtalarida Baqtriya, So'g'diyona va Parfiya ajralib chiqdilar, Vifiniya, Paflagoniya, Kappadokiya va Galatiya kabi davlatlar paydo bo'ldi. Qora va Kaspiy dengizlari oralig'ida Armaniston davlati, Midiyaning shimoliy qismida satrap Atropat Salavkiylardan ajralib chiqib, Midiya Atropatenasini tashkil qildi. Natijada Yunon-Baqtriya va Parfiya podsholiklari vujudga keldi (Yunon-Baqtriya er. avv. 130-yillargacha, Parfiya davlati esa eramizning 227-yiligacha mavjud bo'ldi.). Antiox III bu davlatlarni bo'ysundirish uchun er. avv. 212-205-yillarda sharqqa yurish qildi³⁰. Yurish davomida xarajatlarni qoplash uchun Antiox III Ekbatanadagi Anaxita ibodatxonasini taladi. Yurish natijasida Parfiya qayta bo'ysundirildi, Yunon-Baqtriya uning shaharlarini ikki yil natijasiz qamal qilish bilan rasman Salavkiylar hokimiyatini tan oldi. Antiox qo'shinlari Hindikush tog'laridan o'tib Hindiston yerlariga bostirib kirdi va mahalliy hokim bilan shartnoma tuzilib Antiox Hind jangovar fillariga ega bo'ldi.

Antioxning bu yurishi salavkiylar davlatining yemirilishini vaqtincha to'xtatdi. U markaziy hokimiyatni mustahkamladi. Kichik Osiyoning katta qismi bosib olindi va Kelesiriyani Misrdan batamom tortib oldi.

³⁰ Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – С. 117.

Kuchayib ketgan Salavkiylar davlati Pergam va Rodosni xavfsizligiga jiddiy xavf sola boshladi. Pergam va Rodos Antiox III dan shikoyat qilib, Rimdan yordam so'radi. Rim ham Antiox III saroyiga mashhur Karfagen qo'mondoni Gannibalni maslahatchi bo'lib turganidan norozi edi. Er. avv. II asr boshlarida Salavkiylar bilan Rim respublikasi o'rtasida Yunoniston uchun raqobat boshlandi. Er. avv. 189-yilda Rim bilan bo'lgan urushda Antiox III qo'shinlari yengildi. Mamlakat hududlarida norozilik Salavkiylarning zulmiga qarshi qo'zg'olon va isyonlar boshlanib ketdi. Yunon-Baqtriya va Parfiya o'z mustaqilliklarini qayta tikladilar va Parfiya g'arbga tomon yurish qilib Salavkiylar hududlarini bosib ola boshladi. Midiyada satrap Timarxning isyon ko'tarishi bu viloyatni parfiyaliklar tomonidan bosib olinishiga yordam berdi. Bundan tashqari, parfiyaliklar fors va Elamni egalladilar.

Antiox III ning o'g'illaridan biri Antiox IV (er. avv. 175-yilda) shijoatli hukmdor bo'lib, davlat hokimiyatini bir qadar mustahkamlashga erishdi. Uning boshqaruvi davrida mamlakatda podsho san'at va madaniyatga homiylik qildi³¹.

Shuhratparast Antiox IV Salavkiylar davlatining o'tmishdagi kuch-qudratini tiklashga urindi. Mamlakat ichida bir qadar ijtimoiy siyosiy barqarorlikni vujudga keltirib, uning hududini kengaytirishga harakat qildi. Antiox IV Misrni bosib olish uchun kuchli qo'shin bilan yurish boshladi. Yo'lda uni Rimning Misrdagi elchisi Gay Popiliy Lena to'xtatadi. Aytishlaricha, Salavkiylardan ko'ra qudratli bo'lgan Rim elchisi Antiox IV o'tirgan joyni atrofida doira chizib, Rimning talabi bajarilmaguncha (Misrga yurishni to'xtatish) Antiox IV ni doira ichidan chiqib ketishini taqiqladi. Natijada, rimliklarning tazyiqi ostida Misr yurishi to'xtatiladi.

Salavkiylar davlatining yemirilish jarayoni tezlashib ketdi. Er. avv. I asr boshlarida Yahudiya o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Natijada Salavkiylar davlati hududi Suriya, Finikiya va Klikiyaning bir qismi bilan chegaralanib qoldi. Er. avv. 64-yilda Salavkiylar davlatining qoldiqlari Rimga Suriya provinsiyasi sifatida

³¹ Ранович А.Б. Эллинизм и его историческая роль. – М.: Наука, 1999. – С. 117.

qo'shib olindi. Sharqiy Pont, Paflagoniya, Galatiya, Kappadokiya, Armaniston va Kommagen rimliklarga vassal bo'lgan mahalliy hokimlar qo'lida qoldi³².

Ptolemeylar Misri, Salavkiylar davlati bilan bir qatorda Makedoniya ellin dunyosining katta davlatlaridan biri edi. Diadoxlar urushlaridan so'ng Makedoniya tushkunlik holatida edi. Aholini katta qismi Iskandar yurishlari davrida sharqqa ko'chgan edi. Antigonidlar olib borgan doimiy urushlar shimoldagi varvar qabilalarini xavfi makedon iqtisodi va davlatini zaiflashtirdi. Antigonidlar xo'jalik hayotini qayta tiklash, aholini ko'paytirishga e'tibor berishga majbur bo'ldilar. Shu sababli yangi shaharlar qurilib, eskilari qayta tiklandi, bo'sh yotgan yerlarga aholi ko'chirildi, konlar qazildi. Kemasozlik rivojlandi, qurilish yog'ochlari bilan qizg'in savdo qilindi.

Makedoniyadagi beqaror vaziyat Iskandar vafotidan keyin qariyb ellik yil davom etdi. Er. avv. 276-yilda Kassandrning nevarasi, galat (kelt)lar hujumini ikki marta qaytargan. Yunonistondagi vaziyatni barqaror qilgan Antigon 276-yilda taxtga chiqdi. Antigon va uning avlodlari Makedoniyani Rim bosib olgunga (er. avv. 168-yilgacha) qadar boshqardilar. Antigonidlar uchun Yunonistonni bo'ysundirib turish juda qiyin siyosiy muammo edi.

Bu davrda manfaatlari bir-biriga zid bo'lgan yunon polisleri turli ittifoqlarga birlashib, urush olib borar edilar. Makedoniya ham bir necha yunon polialri kirgan Ellin ittifoqiga boshchilik qildi va yunon shaharlari ichki ishlariga faol aralashdi.

Rim va Ptolemeylar yunon polislarini Makedoniyaga qarshi chiqishlarini qo'llab-quvvatladilar. Ikkinchi Puni urushlari vaqtida Makedoniya Gannibal bilan ittifoq tuzdi. Bunga qarshi Rim Pergam va Peloponnesning bir necha polislarini Makedoniyaga qarshi chiqishga undadi. Natijada er. avv. 215-206-yillar birinchi makedon urushi yuz berdi.

G'ayratli podsho Filipp V Salavkiylar bilan ittifoq bo'lib zaiflashgan Ptolemeylarni Kichik Osiyo va Egey mulklarini bosib oldi. Italiya, Pergam va Rodos bunga qarshi chiqib Rimdan yordam so'radilar. Natijada ikkinchi makedon

³² Редер Д.Г., Черкасова Е.А. Кадимги Дунё тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 245.

urushi (er. avv. 200 – 197-yillar) boshlandi. Fessaliyadagi er. avv. 197-yildagi hal qiluvchi jangda Makedoniya yengildi. U Yunoniston va Kichik Osiyodagi barcha mulklaridan ajraldi.

Filipp V ning o'g'li Persey (er. avv. 179-168 yillar) Makedoniyani avvalgi qudratini qayta tiklashga urindi. Ammo Rim bilan urushda (uchinchi makedon urushi er. avv. 171-168 yillar) Pidna yonidagi jangda yengildi. Makedoniya hududi g'oliblar o'rtasida to'rt okrugga bo'lindi. Er. avv. 148-yilda Andriskni Rimga qarshi qo'zg'olonidan so'ng Makedoniya Rim provinsiyasiga aylantirildi³³.

Iqtisodiyotni asosini erkin dehqon mehnati yetakchi bo'lgan qishloq xo'jaligi tashkil etar edi. Podshoga faqat o'rmon va qazilma boyliklar tegishli edi.

Ellin Makedoniyasiga podsho hokimiyati ba'zi bir eski belgilarini meros qilib oldi: qo'shin yig'ini avvalgidek podshoni taxtga chiqish vaqtidagi o'z ahamiyatini saqlab qoldi, u oliy sudya rolida chiqar edi.

Attalidlar tashqi siyosatda Sharqda Salavkiylar podsholigiga qarshi turib, g'arbda kuchli ittifoqchi sifatida Rim davlatiga tayandilar va bu amalda Pergamni Rim respublikasiga tobe bo'lishga olib keldi. Attal I (er. avv. 241 – 197-yillar) galatlar ustidan g'alaba qilib, Rim bilan ittifoq tuzdi. U birinchi va ikkinchi makedon urushlarida (er.avv. 215 – 205-yillar va 200 – 197-yillar) rimliklar tomonidan ishtirok etdi. Rimliklar homiyligi yordamida Pergam podsholigi Kichik Osiyodagi barcha Salavkiylar mulklarini egallab oldi va o'zining eng qudratli davriga kirdi³⁴.

Ammo Pergamning yuksalishi uzoq davom etmadi. Attal II va Attal III hukmronliklari davrida Rim Pergam jamiyatining hukmron tabaqalariga kuchli ta'sir o'tkazgan holda podsholikning ichki va tashqi siyosatiga faol aralasha boshladilar. Oqibatda er. avv. 133-yilda vafot etgan Attalidlar sulolasining so'ngi podshosi Attal III vorisi bo'lmaganligi sababli o'z davlatini rimliklarga vasiyat qilishga majbur bo'ldi.

³³ Гафуров Б. Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 88.

³⁴ Бойназаров Ф.А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 258.

Bunga javoban Pergam jamiyatining quyi tabaqalari podsho Evmey II ning noqonuniy o'g'li Aristonik boshchiligida qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olonni grek shaharlari aholisi qo'llab-quvvatlamadi, natijada qo'zg'olonchilar yengildi. Aristonik er. avv. 129-yilda rimliklar tomonidan qatl qilindi. Vasiyat qilingan podsholik o'rniga Rimning Osiyo provinsiyasi tashkil etiladi.

Pergam Ellin dunyosining iqtisodiy jihatdan rivojlangan markazlaridan biri edi. Qulay iqlim va tabiiy sharoit qishloq xo'jaligini intensiv rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Pergam O'rtayer dengizi hududi aholisi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib beradigan markazlardan biriga aylandi. Qul mehnatidan unumli foydalanildi. Pergam shaharlari dengiz savdosi yo'llarida turganligi uchun mamlakatning boy xom ashyolari (metal, yog'och, smola, teri, jun) Pergam hunarmandchilik mahsulotlari, jumladan Pergament qog'ozi, butun O'rtayer dengizi ehtiyojlarini qondirdi.

Attalidlar sulolasi podsholari savdo-hunarmandchilikka homiylik qildilar, yunon tipidagi yangi shaharlarga asos soldilar. Bu shaharlar eski shaharlar bilan bir qatorda tezda iqtisodiyot va madaniyat o'choqlariga aylandilar.

Mil.av. III oxiridan boshlab O'rta Yer dengizi odamlarni yoppasiga qul qilish, shahar qa qishloqlarni talash, tinch aholini qirg'in qilish holatlari keng tus ola boshladi. Masalan, etoliyaliklarning Lakonikaga mil.avv. 240-yilda qilgan hujumi natijasida 50 ming kishi asir qilib olib ketilgan va qulga aylantirilgan. Miloddan avvalgi 223-yilda Mantineyaning olinishi uning butun aholisini qul qilinishiga olib keldi³⁵.

Mil. avv. II asrda qaroqchilik yanada avj oldi. Qaroqchilar ko'plab odamlarni tutib olib qul qilib sotar edilar. Tavr tog'ida qaroqchi Ziniketning qarorgohi Olimp joylashgan edi. Suriyada Gindar va Yafa shahri qaroqchilik markazi hisoblangan. Shimoliy Finikiyadagi Arvad shahri qaroqchilar bilan aloqada bo'lgan va hamkorlikda ish olib borgan. Tog'larda yashagan suriya arablari va itureylar vodiylar dehqonlari yerlariga hujum qilar edilar. Kichik Osiyodagi Vifiniya, Pont, Kappadokiya kabi ellin davlatlari hukmdorlari o'z

³⁵ Кошеленко Г.А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. – М.: Наука, 1979. – С. 94.

fuqarolari va begona kishilarni qul qilib sotar va bundan katta daromad olar edilar. Natijada g'arbga olib ketilayotgan qullarning sonlari ortib borgan, narxlari esa arzonlashib borgan. Delos oroli qul savdosining markaziga aylangan.

Mil. avv. II asrda sharqiy ellin davlatlarining umumiy iqtisodiy ahvoli yomonlashgan. Ayniqsa, Misrda qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik tushkunlikka uchragan. Misrdagi soliq tizimi dehqonlar va hunarmandlarni mehnat qilishdan manfaatdorligini butunlay yo'qqa chiqargan edi. Mil.avv. III asrda bo'sh yerlar, to'liq kuch bilan ishlamayotgan hunarmanchilik ustaxonalari paydo bo'la boshladi.

Mill.avv. II asrning oxiriga kelib dehqonchilikning tushkunligi ko'lami kengayib ketdi. Daromad keltirmayotgan yerlarning maydoni keskin oshib ketdi. Ishlov beriladigan yerlardan olinadigan ijara haqi miqdori ham pasayib ketdi. Sug'orish tizimining ahvoli yomonlashib bordi. Kanallar va to'g'onlar ta'mirlamay qo'yildi. Hukumat tomonidan bo'sh yerlarni harbiylarga bo'lib berish va majburiy yoki imtiyozli ijaraga berish kabi tadbirlari muvaffaqiyat keltirmadi.

Dehqonchilikning tushkunlikka uchraganligining asosiy sabablaridan podsholik yer egalari nomlardan (nom – Misrda yunon-rim hukmronligi davrida ma'muriy birlik hisoblangan, mil.av. 284-yilda Diolektianning davlat islohotlari natijasida bekor qilingan.) ketib qolganligi bo'ldi. “Anaxoresis” – ya'ni o'z yashash va ishlash joyidan ketib qolish mil.av. II asrda ommaviy tus ola boshladi. Misrning ichki savdosi ham qisqarib bordi. Ichki savdoning rivojlanishiga tez-tez yuz berib turgan qo'zg'olonlar va sulalararo nizolar halaqit berar edi. Ba'zan, podsho ma'muriyati nomlardan mahsulotlarni Aleksandriyadan boshqa har qanday yerga olib chiqishni taqiqlab qo'yar edi³⁶.

Kelesiriya, Finikiya va Falastin qo'ldan boy berilgach Misrning halqaro savdodagi roli ham pasayib bordi.

Yuqoridagi holatlar ma'muriy tuzilishda ham ayrim o'zgarishlarga olib keldi. Strategning vakolatlari anchayin kengaydi. Ma'muriyat va politsiyaga rahbarlik qilish bilan birga mil. av. II asrdan boshlab u moliya va soliq tizimini

³⁶ <https://az.wikipedia.org/wiki/Ellinizm>

ham nazorat qila boshladi. ekonom lavozimi ikkiga bo'ldi. Bitta ekonom naqd pul daromadlarini, ikkinchisi natural tushumlarni nazorat qiladigan bo'ldi. Politsiyaning vazifalari ham kengaydi.

Homiylik institutini paydo bo'lganligi mahalliy amaldorlarni markaziy hokimyatdan mustaqil bo'lganligidan dalolat beradi. Soliqlardan va mahalliy amaldorlarning zulmidan azob chekkan aholi qaysidir kattaroq amaldorning himoyasiga o'tib olgan. Hokimyatni suiste'mol qilish shu darajaga yetganki, misr podsholari podsholik yerlari egalari va podsho monopoliyalari hunarmandlarini shaxsini va mulkini mahalliy amaldorlar zug'umidan himoya qilishgan qaratilgan maxsus qarorlar chiqarishga majbur bo'lganalar.

Salavkiylar podsholigi hududi va aholisi ham mil.av. II-I asrlarda kuchli o'zgarishlarga uchradi.

Mil.avv. III asrdayoq Baqtriya va Parfiya ajralib chiqib ketdi. Imperiya siyosiy hayotining markazi g'arbga Suriyaga ko'chdi. Rim bilan urushdan so'ng Kichik Osiyo ham qo'ldan ketdi. Mil.avv. 129-yildan keyin Iudeya va Ikki daryo oralig'i ham yo'qotildi³⁷.

Salavkiylar ulkan ahamiyatini saqlab qolgan savdo yo'llarini ham nazorat qila olmay qoldilar. Mil. avv. III-II asrlar oxiridagi urushlardagi ulkan xarajatlar davlatni moliyaviy ahvolini og'irlashtirdi. Ehromlarning xazinalaridan foydalanishga intilish aholining noroziligini keltirib chiqardi. Shunday, harakatlardan biri natijasida Antiox III halok bo'ldi.

Buysundirilgan hududlarni majburan ellinlashtirish siyosati ham muvafaqiyat keltirmadi. Antiox IV Yahudiyada ibodatxonani buzib tashladi, Quddusda harbiy garnizonni joylashtirdi va mahalliy e'tiqodlarni taqiqladi, lekin bu bilan noroziliklarni keskinlashib ketishiga sababchi bo'ldi. Salavkiylar o'z ichki siyosatlarida asosiy e'tibor qaratgan polislar monarxiyadan mustaqil bo'lishga harakat qila boshladilar. Borgan sari Salavkiylarning ijtimoiy tayanchi zaiflashib bordi. Sulola vakillari ko'proq yollanma askarlarga tayanishga majbur bo'ldilar,

³⁷ Гафуров Б. Г., Цибукидис Д. И. Александр Македонский и Восток. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 83.

ular yordamida podsholikning ichki ishlariga tobora faolroq aralashayotgan tashqi kuchlarga qarshilik ko'rsatishga intildilar.

Mil.avv. III asrning oxiri II asrning boshlarida Makedoniyada ham katta miqdordagi yerlar bo'shab qoldi. Filipp V bo'shab qolgan yerlarga frakiyaliklarni ko'chirish amaliyotini keng joriy eta boshladi. Yunonistonning materik qismida mil.avv. II-I hunarmandlarning mehnatiga to'lanadigan haq juda kam bo'lib kuniga o'rtacha 2-4 obolni tashkil etgan. Suv bilan birga bug'doyning narxi IV asrga nisbatan 2 barobarga oshgan. Shaharlarda kambag'allarning og'ir ahvoli shahar boshqaruvini nonni arzon narxlarda sotishga yoki tekinga tarqatishga majbur qilgan.

Mil.avv. II-I asrlar Yevropada va Old Osiyoda qullarning ommaviy qo'zg'olonlari davri bo'ldi. Bir joydagi qo'zg'olon ikkinchi bir joyda keng qo'llab quvatlandi.

Misrda mil.avv. III asrning 40-yillaridayoq ommaviy qo'zg'olonlar boshlanib, tanaffuslar bilan Ptolemeylar hukmronligining oxiriga qadar davom etgan. Ularda podsho dehqonlari, podsho monopoliyalarining hunarmandlari, kichik guruh harbiylari ishtirok etganlar. Bu qo'zg'olonlar asosan "ellinlar"ga qarshi qaratilgan edi.

Yunoniston polislarida III asrning oxirlaridan boshlab boylar va kambag'allar o'rtasidagi kurash siyosiy to'ntarishlarga sabab bo'lgan. Kinefa va Arkadiya kabi shaharlarda shafqatsiz kurashlar bo'lib o'tdi.

Spartada shunday kurashlar natijasida hokimyat tiranlar qo'liga o'tdi. Ular juda muhim ijtimoiy islohotlarni amalga oshirdilar. Mil. avv. 210 – 207-yillarda Spartada Maxanid hukmronlik qilgan va Axey ittifoqi bilan jiddiy kurash olib borgan.

Maxanid halok bo'lganidan so'ng tiran Nabis Sparta davlati rahbariga aylandi. Uning ichki siyosati islohotchi podsholar Agis va Kleomandan farq qilib ancha radikal edi. U nafaqat boylarni mulkini musodara qilib o'z tarafdorlariga taqsimlab bergan, balki ilotlarni ozod qilag hamda ularga va perieklarga er uchastkalari bergan.

Nabisning siyosati qo'shni polislarning kambag'al aholisi tomonidan qo'llab quvatlangan. U Sparta Lakedemon, Argos va Krit shaharlarini qo'shib olishga erishgan. Nabis hokimyatni 192-yilgacha saqlab turgan. Rimning aralashuvi bilan Sparta o'z mustaqilligidan mahrum bo'ldi va Nabis halok bo'ldi³⁸.

Beotiya ittifoqi rahbarlari ham demosning ahvolini yaxshilashga harakat qila boshladilar. Qarzlarni undirish to'xtatib qo'yildi, ochiq nizolarni to'xtatish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini tarqatilgan. Etoliyada mil. avv. 205-yilda qarzlarni kassatsiya qilishga harakat qilganlar. Lekin, bu islohot yirik sudxo'rlarning qarshiligi tufayli amalga oshmay qoldi. Salavkiylar monarxiyasining tashqi siyosiy ahvoli III asr oxiridagi sulolaviy kurashlar natijasida murakkablashdi.

Mill. avv. 223-yil yozida Salavka III Frigiyada o'ldirilgan. Taxt uning ukasi Antiox III ga o'tdi. Hukmronligining dastlabki davrida Antiox o'zini podsho deb e'lon qilgan va g'arbga yurish boshlagan Midiya noibi Molon bilan kurashishga majbur bo'ldi. Tez orada Babil va Salavkiylarning eng yirik shaharlaridan biri Tigrdagi Salavk shahri Molon qo'liga o'tdi.

Molonning muvafaqiyatlari Antioxni unga qarshi katta qo'shin yuborishga va uning Midiyaga boradigan yo'lini to'sib qo'yishga majbur qildi. Ularning o'zaro to'qnashuvi paytida Moln armiyasining bir qismi Antiox tomonga o'tdi, Molon esa o'z joniga qasd etdi.

³⁸ Виппер Р.Ю. История древнего мира. – М.: Республика, 1993. – С. 358.

II BOB. ELLINISTIK DAVLATLARNING MADANIY TARAQQIYOTI

2.1. Ellinistik davlatlarda din, falsafa, ilm-fan taraqqiyoti

Ellini madaniyati yunonlar va Sharq xalqlarining madaniy yutuqlarining qoʻshilib ketishi natijasida shakllandi. Ellin dunyosining maʼnaviy shakllanishiga davlatlarning ulkan hajmlari cheklanmagan podsho hokimligining mavjudligi, shaharlarning amaldagi mustaqilligini yoʻqolishi oʻz taʼsirini oʻtkazdi.

Bu davrda fan va texnika notekis rivojlandi. Davlat hokimiyati manfaatdor boʻlgan harbiy ish, kemasozlik, shaharlarni qamal qilish texnikasi va qurilish sohalarida eng katta yutuqlarga erishildi.

Ellinizm davrida yunon dunyosi sharq diniy tasavvurlarni qabul qila boshladi. Misrda Kichik Osiyo xudosi Serapisga sigʻinish avj oldi. Misr mabudasi Isidani yunonlar Demetra sifatida qabul qildilar. Pergamda Frigiya maʼbudasi (Kibela – yerni onasi) bosh xudo sifatida qabul qilina boshlandi. Ellinlashgan sharq ilohlarining barchasi mistik va ekstatik edi³⁹. Yahudiy dini keng tarqala boshlandi.

Yunonistonda yahudiy dini tarqala boshladi. Yunonlar bu monoteistik dinga ishonib, uni qabul qildilar. Yahudiy diniga yangi qabul qilinganlar “prozelitlar” deb ataldi. Ellin davlatlarida turli xudolar turli xalqlarning diniy eʼtiqodlari keng tarqaldi. Diniy tolerantlik shakllandi. Joylarda dinning universalligini namoyish qilishga intilib barcha xudolarga atab ibodatxona-Panteon qurila boshlandi. Ana shunday Panteon Iskandariyada ham qurildi.

Ptolemeylar Misrida qadimgi firʼavnlarda boʻlganidek podsho hokimiyatining mavqei kuchayib ketdi va Ellin sharqidagi boshqa mamlakatlardagi kabi Misrda podsholarga sigʻinish yana boshlandi. Ptolemey II Filadelf oʻziga va oʻz singlisi Arsenoyaga sigʻinishga buyruq berib, oʻzi va singlisi sharafiga ibodatxonalar qurdirdi. Misrda Ptolemey III va uning xotini Berenikaga ham sigʻinish keng yoyildi⁴⁰.

³⁹ Ранович А.Б. Эллинизм и его историческая роль. – М.: Наука, 1999. – С. 76.

⁴⁰ Бонгард-Левин Г.М. Древние цивилизации. – М.: Мысль, 1989. - С. 141.

O'sha davr falsafasida inson shaxsini o'rganish muammosi birinchi o'ringa chiqa boshladi. Er. avv. V – IV asrlarda ikki falsafiy maktab: yangi stoik va epikur maktablari vujudga keldi. Ular inson, shaxs nima, baxt nima degan savollar ustida bosh qotira boshladilar. Stoiklar maktabining asoschisi faylasuf Zenon edi. Ular Afinaning eng gavjum joyi bo'lmish Agorada naqshin peshayvon “stoya” ostida vaz aytib, o'z tinglovchilariga ta'lim berar edilar (Bu maktabning nomi ham shu so'zdan kelib chiqqan)⁴¹. Stoizm yunon va sharq nazariyalarining sintezi edi. U keng tarqalgan va shu bilan birga uzoq yashagan ellin falsafiy maktab edi. Stoiklar hamma narsani shu jumladan fikr, so'z, olov va shu kabilarni ham jism deb atar edilar. Butun olamni stoiklar rivojlanib turadigan olov deb hisoblashar edi. Stoiklar barcha odamlar teng degan g'oyani ilgari surdilar. Ular insonlar tabiat bilan mos holda yashab, baxt va ilohiylik topadi degan fikrni shakllantirdilar.

Er. avv. IV asrda Afinada Epikur falsafa maktabi shakllandi. Faylasuf Epikurning bog'ida uning do'stlari va shogirdlari to'planib, falsafiy suhbatlar qurdilar. Bozorlar, maydonlar odamlar ko'p bo'lgan joylarda o'z ta'limotlarini targ'ib qilgan Stoiklarga aksan, Epikur tinch va sokin joyda tafakkur qilishni yo'lga qo'ydi. Epikurchilar baxtni mohiyati-azobning yo'qligidir “Kimda kam ehtiyoj bo'lsa, u kishida ko'p farog'at bo'ladi”⁴²-degan tushunchani ilgari surdilar.

Er.avv. III asrda yana bir falsafiy maktab skeptiklar maktabi shakllandi. Bu maktabga Arastuning kichik zamondoshi Pirron asos soldi. Skeptiklar atrof dunyoni bilib bo'lmaydi, uning tabiati to'g'risidagi barcha nazariyalar xayol deb hisobladilar. Shuning uchun ular fizika bilan shug'ullanmadilar, dunyoni bilish nazariyalarini yaratmadilar, lekin boshqa maktablar yaratgan nazariyalar tanqidiga e'tibor berdilar. Ular “Barcha narsalarni hech qachon bilib bo'lmaydi, ular haqida na haqiqatni, na yolg'onni aytish mumkin emas” deb hisobladilar.

Skeptiklar falsafiy oqimi tibbiyotga ta'sir qildi. Tabiblar kasalliklarning sabablarini bilishlari mumkin emas, faqat bemor kasalligini kuzatish kerak.

⁴¹ Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 129.

⁴² Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 136.

Kasallikni kasalda dorilarni sinash bilan davolash zarur degan tushunchani ilgari surdilar.

Er. avv. IV asrda falsafada yana bir maktab kiniklar paydo bo'ldi. Bu maktab asoschisi Antisfen, uning mashhur o'quvchisi Diogen. Kiniklar tabiatga qaytish qulayliklardan voz kechishni talab qildilar, insonning qonun-qoidalari tabiatga qarama-qarshidir deb, davlatni tan olmadilar.

Er.avv. III-II asrlarda Arastu maktabida aniq va tabiiy fanlar o'rganildi. Feosfrast avvalgi faylasuflarni, Menon tibbiy adabiyotni o'rgandi. Evdem matematika va astronomiya tarixini yozdi. Feofrast "O'simliklar tarixi", "O'simliklar fiziologiyasi" asarlarini yozib ilmiy botanikaga, uning ustози Arastu esa zoologiyaga asos soldilar.

Arastu Likmiyada o'z o'quvchilari bilan sayr qilib yurar va ular bilan falsafiy suhbat qilar edi. Shu sababli ular "peripateitiklar"(sayr qilayotganlar) deb atalgan. Ptolemey I Soter Aleksandriyada ilmiy markaz Museyonni tashkil qildi. Bu yerda ulkan ming jildli kutubxona, botanika bog'i, zoopark, xirurgiya laboratoriyalari, astronomik rasadxona, olimlar uchun o'quv zali bor edi. Bu yerda matematika, fizika, astronomiya, jug'rofiya va filologiya fanlari bo'yicha kop olimlar to'plangan edi. Jumladan bu yerda mashhur matematik Yevklid (uning "Boshlang'ich geometriya"si ko'p asrlar davomida 1700 marta chop etilgan) ishladi⁴³. Arximed yoshligidan bu yerda o'z faoliyatini boshladi.

Er. avv. III-II asrlarda Pergamda mashhur matematik Apollogiy ishladi. Iskandariyada geograf Eratosfen, astronomlar Kono va Dosifeylar faoliyat ko'rsatdilar. Iskandar yurushlari qissachisi Aristobul, harbiy boshliq Nearx yunonlarga boshqa mamlakatlar to'g'risida boy ma'lumotlar berdilar.

Kirenalik Eratosfen fizik va matematik jug'rofiyaga asos soldi. Samoslik Aristrax er. avv. III asrda yerdan oygacha bo'lgan masofani o'lchab ko'rdi. Xuddi shu davrda Iskandariyalik Ktesiy pnevmatik qo'lda otadigan snaryadni kashf qildi. U yana suv soati, turli nasoslarni, gidravlik organ, olovga qarshi nasosni yaratdi.

⁴³ Любченков Ю. Древний мир и средние века. – М.: Вече, 2001. – С. 228.

Qal'alarni qamal qilish uchun mashxur taranlardan tashqari g'ildiraklar ustiga o'rnatilgan maxsus harakatlanuvchi minoralar-geliorlar (shahar olarlar ham) paydo bo'ldi. Bu moslamalar dushman shahri devorlariga baravar yoki balandroq qilib yasalar edi. Harakatlanuvchi minora ichida askarlar, zahira o'qlari va toshlar bilan otuvchi to'plar joylashtirilgan.

Savdo, dengiz kemalari takomillashtirildi. Ular ko'pincha ochiq dengizda, okeanga ham chiqar edi. Er. avv. II asrda yunon Gippal Hindistonga kemada safar qilganida ilk bor musson shamollaridan foydalandi. Dengizchilikning rivojlanishi mukammalroq portlar va sohillarida ombor va boshqa yordamchi binolar qurishni zarur qilib qo'ydi.

Ellin arxitekturasida umumiy va xususiy kishilar foydalanadigan binolar ko'pchilikni tashkil qilar edi. Klassik Yunonistonning arxitekturasida asosiy bino Pripter- xususiy uy bo'lgan edi. Shaharlar odatda reja asosida qurilib, bir-birini kesishib o'tadigan to'g'ri burchakli tik ko'chalari bilan chiroyli ko'rinar edi.

Er. avv. I asrda Pontiy podsholigida ixtiro qilinib ishlab chiqarishda o'z o'rnini topgan suv tegirmoni ellinistik jamiyatida eng yuqori texnika yutug'i edi. Kam sonli suv tegirmonlari bilan bir qatorda yuz yillar davomida hayvonlar kuchi bilan aylantiriladigan tegirmonlar, yorg'ichoqlar va hatto oddiy o'g'irlar keng rasm bo'lib keldi. Konchilik ishi texnika jihatidan eng qoloq va mehnatning eng og'ir turi bo'lib konlarda qullar, hukm qilingan jinoyatchilar, harbiy asirlar ko'plab halok bo'lar edi.

Poytaxtlarda ilmiy markazlar va kutubxonalar vujudga keldi. Misrdagi Iskandariya, Orontdagi Pergam, Antioxiya ellin dunyosining ilmiy va madaniy markazi sifatida o'z mavqeqlarini saqlab qoldilar. Iskandariyada Ptolomeylar homiyligida o'sha vaqt uchun g'oyat katta kutubxona to'plangan bo'lib, ellin davrning oxiriga borib bu yerda 70000 ga yaqin papirus o'ramlari mavjut edi⁴⁴. Bu kutubxona o'sha zamonga qadar to'plangan yunon-sharq donishmandligining asarlarini to'laroq ravishda o'z ichiga olgan edi. Saroy qarshisida kutubxonadan tashqari Museyon-ilmiy muassasa ham tashkil qilinib, unda olimlar uchun

⁴⁴ Кошеленко Г.А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. – М.: Наука, 1979. – С. 89.

yotoqxonaga ham bor edi. Iskandariya olimlari matematika, tibbiyot va texnika fanlari sohasida erishgan yutuqlari bilan hamda mutaxassis-filologlar sifatida dong taratdilar.

Ellin davrida fanlar differensiyalashib va sistemalashib bordi. Arestotelning shogirdlari va muxlislari bo'lmish peripatetiklar tarixi bu differensiyalash va sistemalashish jarayonining yaqqol misolidir. Peripatetiklar falsafa maktabiga rahbarlik qilgan Arastuning vorisi Teofrast faqat faylasufgina emas, balki olim ham edi.

Teofrastdan keyin maktabga Straton rahbarlik qildi. Qadim zamonda u “fizik” degan laqab olgan edi⁴⁵. Stratoning alohida xizmati shundan iboratki, u tabiat xodisalarini tadqiq qilishda eksperiment usulini tadqiq qilishda eksperiment usulini tadbiiq etishda intilgan edi. Stratoning shogirdlari orasida Samos orolida tug'ilib o'sgan ajoiib astronom Aristarx bo'lib u yer va boshqa sayyoralar quyosh atrofida aylanadi, degan farazni ilgari surdi. Lekin ilm-fanning o'sha vaqtdagi darajasi va u o'zi kashf etgan geliotsentrik sistemaning chinligini boshqa olimlarga ishonarli tarzda isbot qila olmas edi.

Iskandariya matematiklaridan birinchisi Yevklid edi. U o'z davri falsafasini erishgan yutuqlarini tizimga soldi, umumlashtirdi va tugalladi. Uning “Ibtido” degan asosiy asari ikki ming yildan oshiq vaqtdan beri boshlang'ich geometriya darsliklari uchun asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Taxt vorisi bo'lg'usi Ptolemey IV Filopatorning tarbiyachisi, Museyon kutubxonasining mudiri kirenalik Eratosfen atoqli geograf, astronom, matematik va faylasuf edi. U yer aylanasi uzunligini ko'p darajada aniqlab, hisoblab chiqdi va fizik-matematik geografiyaning asoslarini yaratdi. “Geografiya” atamasini ilk bor Eratosfen ishlatdi⁴⁶.

Iskandariya birdan – bir fan markazi emas edi. Teofrast Afinada ishlagan. Arximed Sirakuzada yashagan. Atoqli injener – ixtirochi bo'lmish Arximed nazariy mexanikaning, gidrostatikaning sferik geometriya va trigonometriyaning

⁴⁵ Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 175.

⁴⁶ Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – С.132.

asoslarini yaratgan yirik nazariyotchi olim edi. U katta sonlarni hisoblab chiqishning arifmetik usulini yaratishda dastlabki qadamlarni qo'ydi. U atoqli astronom ham edi.

Er.avv. III asrda tibbiyot ancha taraqqiy qildi. U Misrda anatomiyani o'rganish yutuqlaridan, Misr va Bobilda dori - darmonlar tayyorlash va tadbiq qilishning ming yillik tajribasini o'zlashtirdi. Yunon tibbiyoti nazariyasi va amaliyotini qadimgi sharq tajribasi bilan birga qo'shish Iskandariyadagi tibbiyot maktabida o'z ifodasini topdi. Gerofil bu maktabning asoschisi hisoblanadi. U odamning tasviriy ifodasini yaratgan, diagnoz metodlarini aniqlagan, dori – darmonlarga katta ahamiyat bergan tabib edi. U qisman Salavkiylar hududida qisman Iskandariyada ishlagan edi⁴⁷.

Er.avv. II asrda yashagan nikeyalik Gipparx atoqli astronom va geograf edi. U bir qancha astronomik asboblarni takomillashtirdi va ixtiro qildi. Kecha – kundizning tengligi kashfiyotini Gipparxga nisbat berdilar. Ammo bu kashfiyot Bobilda qilingan bo'lishi mumkin. U harakatsiz yulduzlar katalogini tuzdi. Bu katalogda 900 ga yaqin yulduzlar o'z o'rnini topgan. Gipparx taqvimni, yerdan oygacha bo'lgan masofani, yer va quyosh massasi haqidagi bilimlarni aniqlagan.

Lekin ikkinchi tomondan bu mashhur olim samoslik Aristarxning geliotsentrik nazariyasiga qarshi chiqqan va o'z obro'yi uchun geliotsentrik tizimini mustahkamlab kelgan. Lekin uning xatoligini tan olmagan. Gipparx ekvatorni 360 ga taqsimlab, uzunlik va kenglik tushunchasini joriy qilgan. Er.avv. I asrda Geron mexanika bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan edi⁴⁸.

2.2. Ellinistik davlatlarda adabiyot, san`at, me`morchilik

Sharq va Yunon ma'daniyatini o'zaro ta'sirida Bobil va Misrda tarixshunoslikning rivoji ko'zga tashlanadi. Er.avv. III asrning birinchi yarmida bobillik kohin Beroesning "Xaldeya tarixi" va misrlik kohin Manefonning "Misr

⁴⁷ Ранович А.Б. Эллинизм и его историческая роль. – М.: Наука, 1999. – С. 105.

⁴⁸ Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 174.

tarixi” nomli asarlari yaratildi. Har ikkala asar ham yunon tilida bo’lsada, mahalliy manbalar asosida yozilgan edi.

Afsuski ikkala asardan ham bizgacha faqat ayrim parchalar yetib kelgan. Manefon asarida esa, fir’avnlarning eng qadimgi zamonlardan to Iskandargacha podshohlar sulolalarini xronologik ro’yxati berilgan.

Ellin davrida fan sifatida adabiyotshunoslik kurtaklaridan filologik tanqid, Gomerdan boshlab klassik mualliflar asarlarini asl nusxalarini qayta tiklash va sharhlash shaklida yuzaga keladi. Filologlar mantiqiy asosda yunon grammatika tizimini ishlab chiqdilar.

Iskandariya museyoni yunon adabiyotining muhim markazi bo’lib qoldi. Bu yerda va boshqa joylarda rivoj topgan adabiy oqim “Iskandariya adabiy oqimi” deb nom olgan. Bu ellin jamiyati yuqori tabaqasining kayfiyatini ifodalagan poeziya edi. Iskandariya shoirlarining boshlig’i Kallimax edi. U museyon kutubxonasining mudiri va taxt vorisining tarbiyachisi edi. Kallimax kutubxona katalogini tuzdi. Shu bilan birga Kallimax mifologik, tarixiy va adabiy mavzularda yozilgan hajm jihatidan kichik – kichik she’rlar muallifidir.

Kallimaxning kichik zamondoshi Feokrit Iskandariyadagi eng taniqli shoir edi. U kichik – kichik lirik – dramatik poema g’oyalar muallifi bo’lib tarixga kirdi. Kallimax o’z asarlarida qishloq va shahar hayotining tinch manzaralarini ideallashtirgan, cho’ponlar hamda shaharlik erkak va ayollarning hissiy kechinmalarini madh etuvchi nozik lirikadir⁴⁹.

Iskandariya poeziyasidan tashqari, ellin davrida yangi attika komediyasi katta ahamiyat kasb etdi. Attika komediyaning asosiy vakili Menandr edi. Misrda topilgan papirus o’ramlari tufayli uning komediyalari bizga ma’lum bo’ldi. Menandr komediyalari syujeti oilaviy, maishiy, dramalardan iborat. Menandr komediyalari baxtiyorlik bilan tamomlandi.

Ellin davrida tasviriy san’at ajoyib yutuqlarga erishdi. Bu davrda yunon va sharq an’analari bilan qo’shilgan anchagina arxitektura yodgorliklari bunyod etilgan. Xashamat va ulug’vorlikka intilish ularning ko’plari uchun xos bo’lgan

⁴⁹ Редер Д.Г., Черкасова Е.А. Қадимги Дунё тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 218.

xususiyat harakterlidir. Haykaltaroshlik san'ati bu davrda ancha ravnaq topgan edi. Ammo uning mazmuni klassik davr an'alaridan farq qildi. Ma'budalar va qahramonlarning ideallashtirilgan va umumlashtirilgan haykallari orqaga surilib tabiiy tarzda gavdalanitirilgan va tasvirlangan shaxsning individualligi yaqqol ko'rsatilgan portretlar oldingi qatorga o'tdi. Ellin davrning haykaltaroshlari yaratgan yakka va guruh tarzidagi haykallarda jismoniy va ruhiy azob, kurash, g'alaba, o'lim tasvirlab ko'rsatilar edi⁵⁰.

Peyzajni fan sifatida tasvirlab unda yoki uning o'rtasida asosiy syujetni aks ettirish haykaltaroshlikda yangilik edi. Bu usul klassikaga ma'lum emas edi. Shu bilan bir qatorda haykaltaroshlikda dabdabali yo'nalish mavjud bo'lib, u ellin hukmdorlarni haykallar soyasida namoyon bo'lardi. Ellin haykaltaroshligida er. avv. IV asrning ulug', mohir ustalariga borib taqaladigan bir necha yo'nalishni ko'rish mumkin. Afinada va Iskandariya Praksitelga borib taqaladigan san'at asarlarini tomosha qilish uchun kiruvchi o'ziga to'q kishilarning didiga mo'ljallangan san'at asarlarini ko'rishi mumkin edi.

Afroditaning va boshqa ma'budalarning yalang'och haykallari bu yo'nalishga xos xususiyatdir. Dramatizmda to'la Pergam maktabi Skopasga borib taqalafi. Pergam mexrobining friz mazkur maktabni ajoyib yodgorligi bo'lib, unda ma'budlarning gigantlar bilan kurashi tasvirlanadi. Bu pergam va boshqa ellin davlatlarining jangovor galat (kel't) qabilalari bilan olib borgan og'ir kurashlarining ramzi edi. Rodos mashhur haykaltaroshlik maktabi Asippga borib taqaladi. Bu maktabda asosan haykallar baquvvat atletlarning tasvirlaridan iborat.

Ellin san'ati deganda Yunoniston va Egey arxipelagi orollari, Kichik Osiyo, Rodos, Suriya va Misr ya'ni, san'atiga yunon an'analari ta'sir o'tkazgan viloyatlar va davlatlarning san'ati tushuniladi.

Ushbu hududlarning san'ati umumiy xususiyatlar bilan birga bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Bu o'ziga xoslik har bir davlatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti va mahalliy badiiy an'analarning ahamiyati bilan izohlanadi. Klassik davrning ijtimoiy va badiiy an'analari saqlanib qolgan

⁵⁰ Кобылина М. М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 164.

Yunonistonda san'atning klassik namunalar bilan yaqin aloqasini belgilab bergan. Bu aloqadorlik Rodos va Pergamning badiiy yodgorliklarida ayniqsa yaqolroq ko'zga tashlangan. Ellinistik Misr san'atida esa yunon san'atining mahalliy badiiy an'analar bilan qo'shilib ketishini kuzatish mumkin.

Ayrim mahalliy badiiy maktablarning shaklanish jarayoni ular o'rtasidagi yaqin madaniy aloqalar zaminida yuz berdi.

Umuman olganda ellinizm san'ati ikki asosiy bosqichga bo'linadi. Miloddan avvalgi IV asrning oxiridan, miloddan avvalgi II boshlarigacha bo'lgan davr ellin san'atining ilk davri hisoblanib bu davrda u o'zining taraqqiyotining eng yuqori nuqtasiga erishdi. Quldorlik jamiyati va uning madaniyatining inqirozi davri bo'lgan miloddan avvalgi II-I asrlar ellin san'atining so'ngi davri hisoblanadi⁵¹.

Ellin me'morchiligi yangi poytaxtlar, savdo, ma'muriy va harbiy strategik markazlar vujudga kelgan miloddan avvalgi IV va III asrlarda keskin yuksalish davrini blshidan o'tkazdi. Ellin dunyosini inqiroz qamrab olagan keyingi asrlarda qurilishi faoliyatining ko'lami pasayib bordi⁵².

Davrning tarixiy shart-sharoitlari me'morlar oldiga asosiy vazifalarni belgilab berdi. Ulardan nafaqat shaharsozlikni katta savdogarlar shahri faoliyatini ta'minlaydigan tamoyillarini ishlab chiqish, balki ellin hukmdorlarini buyukligi va qudratini turli me'moriy uslublar yordamida ifodalash vazifasi talab etilar edi.

Ellinistik shaharsozlik uchun ma'muriy va savdo markazini yaqqol ajratilganligi xarakterli belgi hisoblangan. Klassik davrda shaharning asosiy binosi hisoblangan ibodatxona ma'muriy binolar, kutubxona, gimnasiy va boshqa binolarni o'z ichiga olgan umumiy markaziy ansamblning bir qismi bo'lib qoldi. Markaziy maydon-agoraning qurilish printsipi ham o'zgardi. Ular endi usti yopiq shaklga keldi. Prienadagi agora xuddi shunday ko'rinishga ega edi. Ba'zan, shaharning markaziy qismi Miletidagi shahar markazi, Pergamdagi akropol' kabi bir necha ansamblardan iborat bo'lgan⁵³. Memoriy ansamblga monumental haykaltaroshlik asarlari – ulkan haykallar va haykallar guruhlarini kiritila boshladi.

⁵¹ Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – С. 96.

⁵² Ранович А.Б. Эллинизм и его историческая роль. – М.: Наука, 1999. – С.86.

⁵³ Ранович А.Б. Эллинизм и его историческая роль. – М.: Наука, 1999. – С. 83.

Shahar markazida kesishadigan ikki ko'cha asosiy magistral vazifasini bajargan va boshqa ko'chalarga nisbatan kengroq bo'lib, yaxshiroq bezatilgan edi.

Ellinistik davrda park me'morchiligi tamoyillari ishlab chiqilgan. Iskandariya va Antioxiya o'zining ajoyib, haykallar bilan bezatilgan bog'lari bilan mashhur edilar. Ko'plab odamlarni sig'dira oladigan katta ichki maydonga ega bo'lgan jamoatchilik va ma'muriy inshootlar qurila boshlandi. Miletidagi Bulevteriy bunga yaqol misol bo'la oladi. Ulkan muhandislik inshootlari bunyod etildi. Bunga Iskandariyadagi mashhur Foros mayog'ini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Quldorlarni boyib borishi, shaxsiy hayotga qiziqishni ortib borishi natijasida xususiy uylarni qurish me'morchiligiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirib yubordi. ellin davri hashamatli, ichki ko'rinishi juda boy bo'lgan uylarni qurishning murakkab me'moriy yechimlarini ishlab chiqdi.

Yutuqlar bilan birga ellin me'morchiligi o'z zamonasining qarama qarshiliklarini ham aks ettirgan edi. Binolarning ulkanligi, ansamblarning boyligi, me'morchilik shakllarining murakkabligi va boyitilganligi, takomillashgan qurilish texnikasi klassik davrga xos bo'lgan ulug'vorlik va garmoniyaning o'rinini qismangina to'ldirar edi. Boylarning hashamatli uylari qurilgan kvartallar bilan kambag'allarning kulbalari o'rtasidagi farq haddan tashqari katta bo'lib ketdi.

Xuddi klassik davrda bo'lgan kabi ellinizm davri haykaltaroshligi boshqa tasviriy san'at turlariga nisbatan yetakchiligini saqlab qoldi. Ellinistik davrning mazmuni va mohiyati, hech qaysi bir tasviriy san'at turida haykaltaroshlik kabi yorqin va to'liq aks ettirilmagan edi.

Klassik san'atning asosi bo'lgan polisning quldorlik demokratiyasi tarixga aylandi. U bilan birga polisning davlat boshqaruvida faol ishtirok etadigan, qo'lida qurol bilan uni dushmanlardan himoya qilgan, o'zini erkin fuqarolar jamoasi bilan bir butun deb his qilgan fuqarosi ham ketdi.

Klassik davrning erkin ellini o'rnini mustabid monarxiyaning urushlar paytida davlatni dushmandan himoya qilish majburiyatidan ozod qilingan va davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqidan mahrum qilingan fuqarosi egalladi.

Insonning jamoa bilan yaqin aloqasi yo'qoldi. Ellinizm davri odamlari ongida individulistik an'analar, o'ziga ishonmaslik, voqealarga ta'sir o'tkazishga ojizlik kabi tuyg'ular rivojlana boshladi.

Ellinizm davrida Yunoniston o'zining siyosiy va iqtisodiy yetakchiligini yo'qotdi va kuchliroq ellin davlatlariga yon berishga majbur bo'ldi. Shunga qaramay Yunonistonning madaniy ahamiyati ellin dunyosi uchun juda katta edi. Attikalik ustalar nafaqat o'z yurtlarida balki ellin dunyosining barcha davlatlarida juda qadrlanar edilar.

Yunonistonning siyosiy va iqtisodiy inqirozidan eng katta zarar ko'rgan soha me'morchilik bo'ldi. Ellinizm davrida me'morchilik markazi sharqqa ko'chdi. Attika ulkan qurilishlar uchun moddiy imkoniyatlarga ega emas edi. Ko'plab binolar Afinaga homiylik qilgan Pergam va Salavkiylar davlati ajratgan mablag'lar hisobiga qurilgan.

Ellin davrida Afinada qurilgan eng yirik inshoot Zevs ibrdatxonasi hisoblanadi. Uning qurilishi bir necha yuz yilga cho'zilib ketgan. Miloddan avvalgi VI asrda qura boshlangan bino asosan mil.av. 174 – 163-yillarda qurilgan, va faqatgina Rim imperatori Adrian davrida milodiy II asrda qurib bitkazilgan.

Ellin davrida Afinada qurilgan inshootlardan yana biri balandligi 12 metr bo'lgan mil.avv. I asr o'rtalaida qurilgan Shamollar minorasi hisoblanadi⁵⁴.

Haykaltaroshlikda ham bir qator mashhur asarlar yaratildi. Ilk ellin haykaltaroshdigining eng yaxshi asarlaridan biri Samofrakiyalik Nika haykali hisoblanadi. Bu haykal mil. av. 306-yilda Demetriy Poliorketning Misr hukmdori Ptolemeyning dengiz floti ustidan qozongan g'alabasi sharafiga Samofraka orolida o'rnatilgan. Afsuski hozirgi kungacha haykal boshsiz va qo'lsiz holda yetib kelgan.

Praksitel tomonidan yaratilgan “Knidlik Afrodit” haykali ellin davrida ma`budalarni ifodalashning namunasi bo'lib xizmat qilgan. Miloslik Afrodit haykali haykaltarosh Aleksandr tomonidan yaratilgan bo'lib, bizga qadar ikki qo'lsiz ko'rinishda etib kelgan.

⁵⁴ Гафуров Б.Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 121.

Ptolemeylar sulolasi hukmronlik qilgan ellinistik Misr boshqa ellin davlatlariga nisbatan mustahkam davlat edi. Ellin Misrining gullab-yashnagan davri mil.av. III asrga to'g'ri keladi. Bu davrda Aleksandriya butun ellin dunyosining tom ma'nodagi markaziga aylandi.

Makedoniyalik Aleksandr tomonidan mil.av. 332 – 331-yillarda Nil daryosi deltasida asos solingan Aleksandriya Rodoslik arxitektor Deynokrat tomonidan yagona reja asosida qurilgan.

Aleksandriyaning eng mashhur inshooti Faros mayog'i bo'lib, u dunyoning yetti mo'jizalaridan biri hisoblangan. Mayoqning uzunligi 130-140 metrni tashkil etgan.

Aytib o'tish lozim, ellinlar Misrining san'atida Qadimgi Misr san'ati an'analari saqlanib qolgan. Edfudagi Gor ibodatxonasi, Denderdagi ma'buda Xator ibodatxonalari qurilishida shunday holatni kuzatish mumkin. Ayniqsa, haykaltaroshlikda qadimgi san'atning ta'siri juda sezilarli darajada namoyon bo'lgan. Karnakdagi Aleksandr IV ning haykalining yuzi yunon uslubida, gavdasi esa Misr haykaltaroshligining qadimgi an'analari asosida yaratilgan. Podsho Ptolemeya IV Filopatorning Berlin muzeyida saqlanayotgan rel'efi to'la-to'kis qadimgi san'at an'analari asosida yaratilgan.

Ellinistik Misr haykaltaroshligida kundalik hayot janri, bog'lar va parklarni bezash uchun dekorativ haykaltaroshlik yetakchi o'rin tutgan. Kirenalik Afrodit haykali Misrda klassik haykaltaroshlik san'ati ijodiy jihatdan davom ettirilganligidan dalolat beradi.

Aleksandriyada rassomchilik ham rivojlangan. Mashhur rassom Antifil rassomchilikga ilk bor ijtimoiy hayot sahnalarini olib kirgan. Rassomchilikda peyzaj va natyurmort janrlari keng yoyilgan. Shuningdek, tarixiy va afsonaviy kompozitsiyalarni rangli toshlardan yaratilgan mozaikalarda aks ettirish keng urf bo'lgan.

Ellin dunyosining eng qudratli davlatlaridan biri salavkiylar davlati san'ati yodgorliklari nisbatan juda kam saqlanib qolgan. Manbalarning guvohlik berishicha Salavkiylar davlatining poytaxti Antioxiya eng yirik ellin shaharlari

qatoriga kirgan va ko'p jihatlardan Aleksandriyadan ham qolishmagan. Ulkan shahar yagona reja asosida tartibli qurilgan. Podshoning shahar tashqarisidagi qarorgohi Dafna o'zida ibodatxona, ziyoratgoh, teatr, stadion, saroylarni birlashtirgan, ajoyib bog'lar bilan o'ralgan ajoyib majmua edi.

Antioxiyaning me'moriy ansambllarida monumental haykaltaroshlik katta o'rin tutgan. Mashhur haykaltarosh Lisippning shogirdi Evtixid ma'buda Tixening ulkan haykalini yaratgan.

Antioxiya haykaltaroshligida portret janri ham alohida o'rin tutgan. Bu yerda ishlagan ustalar ijodida ellin hukmdorlarining portretlari tamoyillari yorqin aks ettirilgan. Rimdagi Termalar muzeyida saqlanayotgan "Diadox" deb nomlangan haykal buning yaqqol misolidir⁵⁵. Unda gavdaning xususiyatlari bo'rtirib ko'rsatilgan holda, haykalning boshi hukmdorning asl qiyofasini, hatto xunuk xususiyatlarini ham aks ettirgan. Bu xususiyat keyinchalik Rim imperatorlari haykallaridap ham kuzatilgan.

Antioxiya portret san'ati maktabining eng yorqin namunalaridan biri Antiox III Buyukning haykali bo'lib, hozirda Parijdagi Luvr muzeyida saqlanadi. Unda hukmdorning qiyofasi bo'rttirishlarsiz, asl holicha aks ettirilgan.

Misrda bo'lgani kabi Suriya san'atida ham o'zida yunon san'ati va mahalliy san'at an'alarini aks ettirgan san'at yodgorliklari katta o'rin tutgan. Namrud-Dog'dagi qabrtoshiga ishlangan Antiox I ning Quyosh xudosiga ehsonlar keltirayotgan sahnasi ifodalangan ulkan rel'ef tasviri yunon san'ati va Qadimgi Eron san'ati an'alarini o'zida aks ettirgan.

Pergam, Milet, Magnesiya kabi ellin davrining muhim badiiy markazlari Kichik Osiyoda joylashgan edi. Savdo yo'llarida g'oyatda qulay joylashgan bu qadimiy yunon shaharlari, iqtisodiy hayot markazi sharqqa ko'chganligi munosabati bilan, ilk ellin davrida misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Kichik Osiyoda ellin me'morchiligi ham shaharsozlikda va ham yangi inshootlarning yaratilishi sohasida ham katta yutuqlarga erishdi.

⁵⁵ Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – С. 85.

Milet yaqinidagi kichik shaharcha bo'lgan Priening planirovkasi ilk ellinizm davri shaharsozligining tipik namunasi hisoblanadi. Shahar tog' yonbag'rida qurilgan. Alohida qoyada shahar markazi akropol' joylashgan.

Miletidagi mil. av. 170-yilda qurilgan bulevteriy(bule-shahar kengashi. Shahar kengashi yig'ilish o'tkazadigan joy.) antik teatr uslubida qurilgan. Xuddi teatrdagi kabi o'rindiqlar ko'tarilib borgan va yarim aylana shaklida joylashgan.

Milet yaqinidagi Didimaxda 150 yil davomida qurilgan Apollon ehromi ellin ehrom me'morchiligining ulkan ko'lami va hashamatdorligi haqida tasavur hosil bo'lishiga yordam beradi⁵⁶.

Pergamda qurilgan binolar ham ellin davri me'morchiligining nodir yodgorliklari hisoblanadi.

Podsholik poytaxti Pergam shahri o'zining akropoli bilan mashhur bo'lgan. Shahar katta tepalik yonida joylashgan. Akropol esa tepalik yonbag'ri bo'ylab ulkan zinapoyaga o'xshash terassalar shaklida joylashgan. Akropolning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 270 metr balandlikda joylashgan. Tepalikning cho'qqisida shahar qal'asi-kazarma va qurol-yarog' ombori joylashgan. Aslahaxonadan pastroqda podsholarining saroylari joylashgan. Shaharda kutubxona, Afina ibodatxonasi, 14 ming kishilik teatr binolari ham mavjud bo'lgan⁵⁷.

Ellin davrida adabiyot, me'morchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik rivojlanib borgan. Bu davr san'atining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, yunon madaniyati va mahalliy san'at an'alarining uyg'unlashuvi, bir-birini o'zaro boyitish natijasida juda ajoyib an'analarga ega bo'lgan ellin san'atining vujudga kelganligi bo'lgan.

2.3. Ellinizm va uning Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga ta'siri

Qadimgi hind, ahmoniy va yunon manbalarida Baqtriya viloyatiga alohida ahamiyat beriladi. Baqtriyaga Aleksandrning ham munosabati boshqacha bo'lgan. Shoh Baqtriya amaldorlari va zodagonlari bilan yaqinlashishga urinadi, mintaqa

⁵⁶ Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 169.

⁵⁷ Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 167.

hokimlaridan birining qizi-Raxshonaga uylanishining sababi ham faqat bir ko'rishdagi muhabbat emas, balki uning siyosiy motivlari ham bo'lsa kerak. Aleksandr Baqtriya shaharlarida grek va makedon lashkarboshilaridan ko'proq hukmdor va hokimlarni qoldirishga urinadi. Albatta bunday munosabatning tarixiy sabablari ham bor edi. Mintaqa ipak yuli, G'arb va Sharq savdo yo'lining muhim qismida joylashganligi tufayli boshqa viloyatlarga nisbatan iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan avvalroq rivoj topgan. Bu viloyatni Ioniya va Markaziy Gretsiya bilan aloqasi ham avvalroq boshlangan (Amudaryo xazinasi deb ataluvchi san'at buyumlari, ko'plab topilgan pullar buning isboti). Ana shunday zamin bo'lgani uchun ham ellinizm davrida Baqtriyada ellinlashtirish jarayoni avval va tez o'tdi (Parfiya va Xorazmda bu jarayon ancha kechikdi). Baqtriyaning grek podshohlari Diodot, Yevtidem, Yevkratid, Antimax kabilar viloyatni Gretsiyaning bir qismi deb qaraganlar. Agar Parfiya, So'g'diyona va Xorazm uchun ellinistik madaniyat namunalari eramizdan avval III – II asrlarda odat tusiga kirgan deb qabul qilinsa, Baqtriyada madaniyatning tadrijiy taraqqiyoti mahsuli sifatida qaralgan. Shuning uchun ham ellinistik san'at namunalari ayniqsa Baqtriyada yetuk tus olgan.

Antik adiblar “Ming shaharli Baqtriya” deydilar. Haqiqatan bu vodiya (Amudaryoning ikki sohili, O'zbekistonning janubi va Afg'onistonning shimoli) arxeologlar ko'plab katta va kichik shaharlar vayronasini topganlar⁵⁸.

Agar Aleksandrdan avval greklar Baqtriya va Hindiston juda uzoq o'lkalar, dunyoning chekkasi deb tasavvur etsalar, Makedoniya shohi yurishlari bu tasavvurni puchga chiqardi, yurishlar jarayonida minglab lashkarlar bu yerlarda o'troqlashib qoladilar, ellinizm davrida esa ko'plari ko'chib ham keladilar. Eramizdan avval III asr o'rtalarida Baqtriya Diodot rahbarligida Selevklar davlatidan ajralib chiqadi va o'zini mustaqil davlat deb e'lon qiladi. Natijada Baqtriyada quldorlikka asoslangan greklar hukmronligidagi davlat tashkil topdi.

Baqtriya hukmdori, ayniqsa Yevtidem va Yevkratidlar mustamlakalashtirish siyosatini olib boradilar hatto janubiy Afg'oniston va Shimoliy Hindistonni bosib

⁵⁸ Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – С.94.

oladilar, Baqtriyaning grek shohlari grek polislari davlat-shahar usulida ko'plab shaharlar quradilar, binolar qurilishida esa grek va sharq elementlari sintezlantiriladi.

Baqtriyada greklar tomonidan qurilgan shaharlarning eng yirigi hozirgacha ma'lum bo'lgan Afg'onistonning shimolida joylashgan Aleksandriya Oksiana, ya'ni Amu Aleksandriyasi (hozirgi nomi Oyxonim)dir⁵⁹. U 400 gektar yerni ishgo'ol etgan. Unda teatr, gimnasiy (savodi chiqqan bolalar ilmiy va jismoniy kamolot topganlar), kutubxona, xazina, grek xudolariga ibodatxonalar, davlat idoralari, qasrlar, saroylar, haykallar bilan bezatilgan fontan, shaxsiy hovlilar mavjud ekanligini frantsuz arxeologlari aniqlashdi. Shahar eramizdan avval IV asrda barpo etilib, eramizdan avvalgi 147-yillar atrofida ko'chmanchilar tajovuzi ostida vayron etilgan. Oyxonimni tasvirlagan frantsuz olimlari D. Shyumberje va Pol Bernarlar grek yozuvidagi ikki papirus parchalarini topganlar, ularning birida falsafiy mazmundagi dialog, ikkinchisida she'r bo'lgan. Afsuski, namgarlikda kutubxonaning yer sahniga yozuv iz bo'lib tushgan yerda ham pergamentda ham saqlangan yozuv izini o'qib bo'lmagan. Arxeologlar topilgan idishlarda grekcha yozuvlar (idishdagi narsalar nomi, og'irligi va h. k.) bo'lganini aniqlaganlar.

Baqtriyada Oyxonimdan boshqa Kofir qal'a, Yemishtepa, Dilberjin, Saksonoxur, Taxti Sangin, Yovon, Tomoshatepa, Xalchayon, Yerqo'rg'on, Qanqa kabi ellinistik tipdagi shaharlar mavjud bo'lganligini arxeologlar aniqlashdi⁶⁰. To'g'ri, bular Aleksandriya Oksiana darajasiga ko'tarila olmaganlar. Lekin bu shaharlarning ochilishi grek shohlari Baqtriyada hukmronlik qilgan davrlarda ellinistik madaniyat, san'at butun viloyat bo'ylab keng tarqalganligini isbotladi. Shu o'rinda agar ichki iqtisodiy-ijtimoiy sharoit tashqaridan bo'lgan ta'sirni qabul qilib olish va rivojlantirish darajasida bo'lmasa har qanday kuchli ta'sir ham yerli madaniyatga singmasligi va iz qoldirolmasligini yana bir bor eslab o'tishni lozim ko'rdik. Haqiqatan, mintaqada yuzaga kelgan tarixiy sharoit ellinistik madaniyatni

⁵⁹ Гафуров Б. Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. – М.: Высшая школа, 1980. — С. 87.

⁶⁰ Редер Д.Г., Черкасова Е.А. Қадимги Дунё тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 237.

o'zlashtirish va o'zi ham uning ajoyib yuksak namunalarini yaratishga qodirliginn ta`minladi.

Baqtriyada ellinistik uslubda yaratilgan san`at buyumlari, ayniqsa pullardagi rasmlar mahorat bilan ishlangan. Bu haqda K.V. Trever shunday deydi: «Portretlarni pullarda ajoyib o'ta realistik tasvirlay olish jihatidan grek—baqtriya san`ati Gretsiya va Suriyaning pulda tasvirlay bilish san`atidan o'zib ketgan⁶¹. Rassomlar har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini individual ravishda realistik bera olganlar», deydi. Bu fikrni zamonaviy olimlar ham (Marshak B. I., Kruglikova I. T. va b.) quvvatlaydilar. Baqtriya pullari grek an`anasini davom ettirib, bir tomonda podshoh portreti, ikkinchi tomonda shaharga homiylik qiluvchi xudo va mifologik syujet tasvirlangan, bularni yuksak san`at namunasi deyish mumkin.

O'rta Osiyo va Shimoliy Afg'onistonda rivoj etgan ellinistik san`at asarlarini tematika jihatidan uch guruhga ajratish mumkin: diniy, epik va fol'klor bilan bog'liq asarlar. Ayniqsa er. av. VI – II asrlarda Baqtriyada rivoj topgan ellin madaniyatiga xos diniy e`tiqod bilam bog'liq edi.

O'rta Osiyoda ellinizm davrida Olimp xudolari bilan yerli ma`buda obrazlari va vazifalari birlashtiriladi, Axura-Mazda-Zevs, Mitra-Zevs, Gelios, Appolon, Nika-Tyuxe-Xvaninda, Anaxita-Afina, Poseydon-Vaxsho va h. k. Qizig'i shundaki ko'p o'rinlarda grek xudolari yerli kiyimda tasvirlanganlar, masalan Mitraning boshida nur sohib turgan Zevs, Gelios Heraklga ko'chirilgan yoki aksincha yerli ma`buda Xvaninda Gretsiyada g'alaba ma`budasi Nika (Tyuxe) atributlari – gul-dasta va qanot bilan, Amudaryo suvlari xudosi Vyaxsho esa Poseydonga xos uch tishlik asbob bilan tasvirlanadi⁶². Bulardan tashqari mintaqada Dioskurlar, Dionis e`tiqodlari ham keng tarqalgan (Dilberjinda Diokurlar ibodatxonasi, Bandixonda Herakl haykalchalarini tayyorlovchi qolip, Oyxonimda Zevsning katta haykalining parchalangan bo'laklari, yana 12 Olimp xudolarining tasviri tushirilgan gips qolip, Dionis haykalchalari Dilberjinda topilgan. Grek madaniyati bilan tanishmasdan

⁶¹ Кошеленко Г.А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. – М.: Наука, 1979. – С. 74.

⁶² Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 135.

avval O'rta Osiyo xalqlarida xudolari inson shaklida tasvirlash bo'lmagan, eramizdan avval V asrda eronshoxlar tomonidan mintaqa bosib olingach xalqlar Eron orqali Ioniya va Gretsiya madaniyati bilan tanishadilar, shundan boshlab yerli xudolarni odam shaklidagi haykal va haykalchalarda tasvirleydilar. Xudolar tasviridan tashqari binolarni quyma tasvirlar bilan bezash, kolonnalar, binolarni planlashtirish ham ellada san`ati, arxitekturasi ta`siri ostida bo'lgan, Xalchayonda topilgan haykallar, o'g'il bolalar tutib turgan gul shodalari tasviri bunga yorqin misol bo'la oladi⁶³.

Aleksandr yurishlari natijasida tashkil etilgan imperiyada grek tili va yozuvi rasmiy davlat tili, yozuvi sifatida qabul qilingan edi.

Ellinizm davrida bu til o'z pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi. Hindistondan Italiyagacha bo'lgan hududda yashagan xalqlar o'zaro grek tili yordamida fikr almashadilar, u ikkinchi tilga aylanadi, hatto Parfiyada ham grek tili yuqori mavqega ega bo'ladi. Til birligi o'z navbatida madaniyatlar, adabiyot yaqinligiga olib keladi. Ammo, afsuski, adabiy aloqalar haqida deyarli hech qanday manba bizgacha yetib kelmagan, turli urushlar, ayniqsa arablar istilosi davrida kitoblar shafqatsiz kuydirilgan.

Sharq mamlakatlarida grek tilidagi asarlar bo'lgani haqida ma`lumotlar bor, ammo ular saqlanib qolmagan. To'g'ri, o'sha davrning madaniy markazlari bo'lmish Aleksandriya, Pergam, Koss kabi shaharlarda rivojlangan grek adabiyotini yaratishda ellinistik mamlakatlardan chiqqan adiblar (ularniyag ma`lum qismi, albatta, yunon bo'lmaganlar) ham ishtirok etganlar. Lekin bu markazlarda yaratilgan asarlar xususiyat, uslub, mahorat jihatidan grek adabiyotining tadrijiy davomi va ajralmas qismini tashkil etadi. Yuqoridagilarni nazarda tutganimizda ellinistik madaniyat ta`siri kuchli bo'lgan Baqtriyada ham adabiy asarlar yaratilishi ehtimoldan uzoq emas.

Sharq mamlakatlarida milliy adabiyot ham o'z navbatida rivoj etgan, ayniqsa parfiya tilidagi adabiyot boy bo'lgan. Nemis olimi F. Altxaym "Aleksandr va Osiyo" asarida arab manbalariga suyangan holda Parfiya shohlari davrida

⁶³ Ранович А.Б. Эллинизм и его историческая роль. – М.: Наука, 1999. – С.123.

yaratilgan yetmishga yaqin badiiy asarlar bo'lgani haqida xabar beradi⁶⁴. Albatta bularga ham, grek adabiyotining ta'siri o'tishi tabiiy hol edi. Aleksandr o'zi bilan shoirlar, tarixchilar, aktyorlar olib yurgani, joylarda she'rxonliklar, teatr o'yinlari uyushtirgani va Homer asarlarini olib yurib, doim o'qigani va majlislarda ko'pchilik uchun o'qitgani haqida antik mualliflardan ma'lumotlar borligini yuqorida aytgan edik. Plutarx va Elian esa Homer asarlarini Erondan Hindistongacha bo'lgan masofada yashagan xalqlar o'qiganlar deydi. Plutarxning xabariga ko'ra Baqtriya va Parfiya shohlarining saroylarida Sofokl va Yevripid tragediyalari o'ynalgan fikrimizcha, bu ma'lumot haqiqatdan uzoq emas, chunki grek teatri bo'lgandan keyin albatta, unda grek tragediya va komediyalari o'ynalgan. Oyxonimda esa "Iliada" mazmuniga aloqador tasvir tushirilgan idish topilgan⁶⁵. Albatta bularning hammasi adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy, ammo ularning namunalari saqlanib qolmagan.

Miloddan avvalgi III asrda O'rta Osiyo va Xurosonda Yunon Baqtriya davlatidan boshqa yana ikkinchi qudratli davlat – Parfiya tashkil topdi. Parfiya ham Salavkiylarga bo'ysungan bo'lib, III asr o'rtalarida, Baqtriyadan keyin o'zini mustaqil davlat deb e'lon qildi. Qadimgi Rim tarixchisi Yustin (II asr) "Bu davrda kelib chiqishi noma'lum bo'lgan, lekin o'ta jasur Arsak yashagan. Odatda u qaroqchilik bilan shug'ullangan. Selevk Osiyoda mag'lubiyatga uchradi degan xabarni eshitib, endi shohdan qo'rqmay, qaroqchilar bilan birga parflarga hujum qiladi, ularning hokimi Andragorni yengadi, uni o'ldirib, xalq ustidan hokim bo'ladi", deydi. Strabonning fikricha: "ba'zilar Arsakni skiflardan desalar, boshqalar aksincha, uni baqtriyalik deydilar"⁶⁶.

Parfiya Mitridat I (eramizdaya avval 171 – 138-137 yillar) davrida o'z yerlarini kengaytiradi, G'arbiy Eron, Midiya, Mesopotamiyani qo'shib oladi, ayniqsa Mitridat II (123 – 87) davrida, dunyodagi to'rt buyuk davlatlarning biriga aylanadi (Rim, Xitoy, Kushon imperiyasi va Parfiya)⁶⁷. Efrat daryosi Rim va

⁶⁴ Авдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. –Тошкент:Ўрта ва Олий мактаб давлат нашриёти, 1964. – Б. 276.

⁶⁵ Бонгард-Левин Г.М. Древние цивилизации. – М.: Мысль, 1989. – С. 346.

⁶⁶ Ранович А.Б. Эллинизм и его историческая роль. – М.: Наука, 1999. – С. 69.

⁶⁷Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 189.

Parfiyani ajratib turuvchi chegara bo'lgan, ammo Rimning agressiv siyosati natijasida ikki davlat o'rtasida tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan. Agar eramizdan avvalgi 65-yildagi to'qnashuvda rimliklar ustun chiqqan bo'lsa, 54-yilda mashhur lashkarboshi Krass rahbarligadagi rim armiyasini parfiyanlar tor-mor etadi va lashkarboshi halok bo'ladi. Afsona yoki parfiyanlar epik asarida berilgan ma'lumotga ko'ra shoh Orod II Krass boshini choptirib, "Sen hech boylikka to'ymagansan, endi to'ygin" deya og'ziga eritilgan kumush quydiradi. Yuqorida aytganimizdek, bu o'rinda Herodotda keltirilgan Kir halokati va malika Tomaris so'zlarining ta'siri ostida Krass halokati haqidagi hikoyat yaratilgan bo'lsa kerak. Rim shoiri Horatsiy qasidalarida aytilishicha asir tushgan rimliklar Marv shahri atrofiga joylashtirilgan, ular parfiyanlar lashkarlari bilan xizmat qilgan va oila qurib, o'troqlashib qolishgan. Ba'zilar mintaqada tarqalib, Xitoygacha borganlar. Ular haqidagi ma'lumot Xitoy manbalarida saqlangan.

Arxeolog olim M.E. Masson rahbarligidagi guruh Ashxobod yaqinida XX asrning 30 – 50 yillarida Parfiya shohlarining imperiya shimolidagi rezidentsiyasi Nisa (Nasoim) vayronalarini kavlab, katta kashfiyotlar qildi. Natijada Parfiya san'ati namunalari asosan Nisada saqlanib qolganligi ma'lum bo'ldi. Bular marmar toshdan, sopoldan va oddiy loydan ishlanib, ustidan alebastr qoplangan haykal va haykalchalar, may ichish uchun idish-ritonlar va muhrlardir.

Marmar haykallar ellinistik davr mahsuli bo'lib, ular, asosan, ilohiy personajlarni tasvirlagan. Izlanishlar natijasida Nisa ma'budasi, Rodoguna, greklar e'tiqodida go'zallik, ishq-muhabat ma'budasi Afroditaning boshi, Artemidaning oyog'i topilgan. Haykalchalar orasida Afinaning oltin suvi berilgan kumush tasviri, ishq ma'budi Erotning kumush haykalchasi o'zining san'atkorona ishlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi⁶⁸.

Muhrlarda turli-tuman tasvirlar bilan bir qatorda sof grek mazmuni, Zevs, Afina, Afrodita kabi xudolar tasviri berilgan. Samarqand yaqinidagi Panjikentdagi devorlarga ishlangan rasmlarda tumshug'ida lentalik gulchambar yoki xalqa ushlab turgan qush surati topilgan. Bu obraz grek va rim san'atida keng tarqalgan bo'lib,

⁶⁸ Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – С. 81.

bu simvolik obraz O'rta Osiyoda Parfiya davrida paydo bo'lgan. Qush obrazi Gretsiyada Nika va Zevsning burguti haqidagi afsona bilan bog'liq. Parfiyada avval Nika shoh boshiga lentalik gulchambar kiydiruvchi sifatida pullarda zarb etilgan bo'lsa, keyinroq Zevs va burgut tasvirlanadi. Fraat IV pullarida esa faqat gulchambarni tumshug'ida ushlab turgan qush tasviri zarb etiladi, Nika o'rnini burgut egallaydi (Nika va burgut obrazlari Parfiyaning Yaqin Sharqda saqlanib qolgan san'at yodgorliklarida ham keng uchraydi). Ham Nika, ham Zevs burguti bo'lajak shohga xudolar tortig'i, tojni simvallashtiruvchi gulchambar keltiradilar. Shoh boshiga gulchambar kiydirayotgan Nikani tasvirlovchi pullar Xorazmda ham zarb etilgan. Bu o'rinda o'zbek ertaklarida uchrovchi boshiga qush qo'ngan odamni podshoh etib saylash, "davlat qushi" iborasi balki Zevs burguti bilan bog'liqdir, degan fikr tug'ildi⁶⁹.

Yozuv namunalari – (Parfiyada grek yozuvi qo'llansada) Nisadan faqat aramey yozuvida bitilgan xo'jalik asboblari topilgan xolos. Parfiya shohi Mitridat II pullarda o'zini "adolatli va sahovatli shahanshoh" deb atab, "filellin" (panellin) ham deydi. Plutarxning xabariga ko'ra shoh Orod II yunon tilini yaxshi bilgan va grek tragediyasini teatrdan sahnalashtirgan. Parfiya ellinistik davlatlar qatoriga kirmaydi, ammo eramizdan avvalgi III eraning II – III asrlarida O'rta Osiyoda ellinistik madaniyat keng tarqalgani tufayli umumiy yo'nalish bu mamlakatga ham o'z ta'sirini o'tkazadi⁷⁰.

Eramizning boshlarida Baqtriya va Shimoliy Hindistondagi grek davlatlari vayronalarida Kushon imperiyasi tashkil topadi. Xitoy manbalari ma'lumotlariga binoan ko'shonlar yuechlarga taalluqli bir qabila. Har holda qanday bo'lmasin eramizning boshlang'ich asrlarida Ko'shon imperiyasi jahondagi to'rt buyuk imperiyaning biriga aylanadi. Britaniya orollaridan Tinch okean soxillarigacha bo'lgan eng madaniy ilg'or o'lkalar Rim, Parfiya, Xitoy va Ko'shonlar imperiyalariga qaram etildi. Bu to'rt imperiya o'zaro yaqin aloqa o'rnatadilar. Insoniyat tarixida qit'alararo savdo va diplomatii aloqalar o'rnatiladi, Buyuk ipak

⁶⁹ Гафуров Б.Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. – М.: Высшая школа, 1980. – С.97.

⁷⁰ Кошеленко Г.А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. – М.: Наука, 1979. – С.83.

yo'li rasmiy tan olinadi va davlatlararo savdo aloqalari kuchayadi, Sharq va G'arb o'rtasida Hind okeani orqali dengiz yo'li ham ochiladi (Ko'shon pullari Kiev, Efiopiya, Skandinaviya, Rimda topilsa, Rim yo'llari O'rta Osiyo, Hindistonda topilmoqda)⁷¹. Kushonlar imperiyasi IV asrda Sosoniylar tomonidan tor-mor etiladi.

Kushonlar imperiyasi O'rta Osiyo janubi, Shimoliy Afg'oniston, Shimoliy-G'arbiy Hindistonning talaygina hududini o'z ichiga olgan bo'lsa-da uni hind davlati deb bo'lmaydi. Ko'shonlarning asosiy o'zagi qadimiy madaniyat o'chog'i bo'lmish Baqtriya edi.

“O'ziga xos va murakkab ko'shonlar dunyosi uch component – yerli, Baqtriya – ellinistik va O'rta Osiyoga qo'shni bo'lgan Afg'oniston, Pokiston, Hindiston va Eron madaniyati bilan hamohang bo'lgan ko'chmanchilar madaniyati elementlaridan shakllandi”⁷². O'z navbatida ko'shonlar madaniyati Sosoniylar davri Eron madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir etdi. Ma'lumki, Sosoniylar san'ati nafaqat Eron ham Vizantiya, roman, rus, ham xitoy san'ati shakllanishida katta rol o'ynadi.

Sharq va G'arb xalqlari iqtisodiy, ijtimoiy hayotda ro'y bergan intensiv kontakt, o'zaro aloqalar, e'tiqod, ilm, falsafa, san'at sohasida bo'lgan ikkiyoqlama ta'sir jarayonida adabiyot ishtirok etmasligi hech mumkin emas. Sharq xalqlari vakillari tomonidan grek tilida asarlar yozilgani haqida ma'lumotlar bo'lsada, birorta asardan parcha ham saqlanib qolmagan. To'g'ri, Aleksandriya va Pergamda yaratilgan grek adabiyotini vujudga kelishda sharq mamlakatlaridan chiqqan adiblar ham ishtirok etganlar, lekin grekcha ismlar ostida ijod etganlar, hozir u adiblar qaysi xalq vakili ekanini aniqlab bo'lmaydi. Aniqlashni ahamiyati ham yo'q, chunki Aleksandriya adabiyoti umumgrek adabiyoti yo'nalishni davom ettirgan. Afsuski, sharq mamlakatlarida yaratilgan badiiy adabiyot namunalari bizgacha saqlanib qolmagan, faqat xalq og'zaki ijodi bizga ba'zi ma'lumotlarni yetkazib kelgan.

⁷¹ Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – С. 65.

⁷² Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С.186.

XULOSA

Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa yurishlari vaqtidan boshlab, O'rtayer dengizining katta qismi Misr, Kichik va Old Osiyo, uning atrofidagi hududlar, O'rta Osiyoning janubiy va markaziy Osiyoning bir qismi, Hind daryosining quyi oqimigacha ularning tarixiy taraqqiyotini yangi Ellin davri boshlandi. "Ellin" tushunchasi tarix fanida birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida nemis olimi I.Droyzen tomonidan kiritildi. Droyzen bu tushunchani makedoniyalik Iskandarning bosqinchilik yurishlaridan keyingi katta tarixiy davrga nisbatan qo'lladi va uni mazmunini madaniy soha bilan chekladi.

XX asrning 50-yillar boshlaridan ko'pchilik tarixchilar Elliniz davrini siyosiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy sohalarda Ellin (g'arb) va mahalliy (sharq) hayotining sintezi deb qabul qildilar. Bu sintez qadimgi Sharqning ko'pgina hududlarini yunon-makedon istilolari oqibatida aniq tarixiy vaziyatda amalga oshdi.

O'rta dengiz sharqidagi ellin davlatlarining eramizdan avvalgi XII – I asr tarixi davrida bu davlatlarning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishining o'ziga xos tomonlari bo'lgan. Ana shunday o'ziga xos tomonlariga ega bo'lgan ellin davlatlarida xalk ommasi iqtisodiy majburiyatlarsiz, to'g'ridan-to'g'ri davlat hokimiyati ya'ni podshoga qaram qilingan. eng ko'p qaram qilingan gurux - bu dexqon jamoalari bo'lib, ular podsho (davlat) xazinasiga yer solig'i yoki jon solig'i tarzida soliq to'lab turganlar.

Yunon-makedonlar kelishi arafasida Misrning iqtisodiyoti so'ngi tosh davri ibtidoiy texnikasi darajasida bo'lib, faqatgina qisman takomillashtirilgan mis va bronza qurollariga asoslangan edi. Yunon-makedonlar kelishi bilan mamlakat xo'jaligida haqiqiy to'ntarish bo'ldi: qishloq xo'jaligida temir mehnat qurollari paydo bo'ldi, Bobildan seyalka olib kellindi. Qishloq xo'jaligida yangi texnik moslamalar vino va zaytun yog'ini olish uchun vintli pres (Arximed vinti)dan foydalana boshlanishi dehqonlarni mehnatini yengillashtirdi.

Ptolemeylar Misri, Salavkiylar davlati bilan bir qatorda Makedoniya ellin dunyosining katta davlatlaridan biri edi. Diadoxlar urushlaridan so'ng Makedoniya

tushkunlik holatida edi. Aholini katta qismi Iskandar yurishlari davrida sharqqa ko'chgan edi. Antigonidlar olib borgan doimiy urushlar shimoldagi varvar qabilalarini xavfi makedon iqtisodi va davlatini zaiflashtirdi.

Ellin madaniyati yunonlar va Sharq xalqlarining madaniy yutuqlarining qo'shib ketishi natijasida shakllandi. Ellin dunyosining ma'naviy shakllanishiga davlatlarning ulkan hajmlari cheklanmagan podsho hokimligining mavjudligi, shaharlarning amaldagi mustaqilligini yo'qolishi o'z ta'sirini o'tkazdi.

Bu davrda fan va texnika notekis rivojlandi. Davlat hokimiyati manfaatdor bo'lgan harbiy ish, kemasozlik, shaharlarni qamal qilish texnikasi va qurilish sohalarida eng katta yutuqlarga erishildi.

Ellinizm davrida yunon dunyosi sharq diniy tasavvurlarni qabul qila boshladi. Misrda Kichik Osiyo xudosi Serapisga sig'inish avj oldi. Misr mabudasi Isidani yunonlar Demetra sifatida qabul qildilar. Pergamda Frigiya ma'budasi (Kibela – yerni onasi) bosh xudo sifatida qabul m qilina boshlandi. Ellinlashgan sharq ilohlarining barchasi mistik va ekstatik edi. Yahudiy dini keng tarqala boshlandi.

Shaq va Yunon ma'daniyatini o'zaro ta'sirida Bobil va Misrda tarixshunoslikning rivoji ko'zga tashlanadi. Er.avv. III asrning I yarmida bobillik kohin Beroesning "Xaldeya tarixi" va misrlik kohin Manefonning "Misr tarixi" nomli asarlari yaratildi. Har ikkala asar ham yunon tilida bo'lsada, maxalliy manbalar aosida yozilgan edi.

Ellin davrida adabiyot, me'morchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik rivojlanib borgan. Bu davr san`atining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, yunon madaniyati va mahalliy san`at an`analarining uyg'unlashuvi, bir-birini o'zaro boyitish natijasida juda ajoyib an`analarga ega bo'lgan ellin san`atining vujudga kelganligi bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

I. Rasmiy adabiyotlar

1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.

1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 31б.

1.3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

1.4. Каримов И. А. Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – 144 б.

1.5. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.

1.6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Turkiston. 2014 йил 8 февраль.

1.7. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Т.: Ozbekiston, 2015. – 304 b.

II. Adabiyotlar:

2.1. Авдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. – Тошкент: Ўрта ва Олий мактаб давлат нашриёти, 1964. – 446 б.

2.2. Бойназаров Ф.А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 320 б.

2.3. Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества. – М.: Наука, 1987. – 188 с.

2.4. Бикерман Э. Хронология древнего мира. Ближний Восток и античность. – М.: Наука, 1975. – 336 с.

- 2.5. Бонгард-Левин Г.М. Древние цивилизации. – М.: Мысль, 1989. – 479 с.
- 2.6. Бивен Э. Династия Птолемеев: История Египта в эпоху эллинизма. – М.: 2011. – 448 с.
- 2.7. Виппер Р.Ю. История древнего мира. – М.: Республика, 1993. – 511 с.
- 2.8. Гафуров Б.Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. – М.: Высшая школа, 1980. – 184 с.
- 2.9. Глускина Л.М. История древнего мира. – М.: Высшая школа, 1986. – 238 с.
- 2.10. Джонс А.Х.М. Гибель античного мира. – Ростов: Феникс, 1997. – 576 с.
- 2.11. Древние цивилизации. Под ред. Бонгард - Левина Г.М. – М.: Прогресс, 1989. – 188 с.
- 2.12. Занимательная Греция. – М.: Новое литературное обозрение, 2008. – 416 с.
- 2.13. История древнего мира. Под ред. Дьяконова И.М., Нароной Е.С., Сванцицекова И.С. – М.: Высшая школа, 1982. – 426 с.
- 2.14. История Древнего мира. Том 1: Ранняя древность. Под редакцией: Дьяконов И. М., Неронова В. Д., Свеницкая И. С. – М.: Наука, 1983. – 430 с.
- 2.15. История Древнего мира. Том 2: Расцвет древних обществ. Под редакцией: Дьяконов И. М., Неронова В. Д., Свеницкая И. С. – М.: Наука, 1983. – 524 с.
- 2.16. История Древнего мира. Том 3: Упадок древних обществ. Под редакцией: Дьяконов И. М., Неронова В. Д., Свеницкая И. С. – М.: Наука, 1983. – 276 с.
- 2.17. –История древнего мира: Восток, Греция, Рим. Ладынин И.А., Новиков С.В., Никишин В.О., Немировский А.А. – М.: АСТ СЛОВА, 2010. – 576 с.

2.18. Кошеленко Г.А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. – М.: Наука, 1979. – 164 с.

2.19. Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – 239 с.

2.20. Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. – 156 б.

2.21. Любченков Ю. Древний мир и средние века. – М.: Вече, 2001. – 346 с.

2.22. Фуллер Д. Военное искусство Александра Великого. — Смоленск, 2006. — 320 с.

2.23. Ранович А.Б. Эллинизм и его историческая роль. – М.: Наука, 1999. – 169 с.

2.24. Редер Д.Г., Черкасова Е.А. Қадимги Дунё тарихи. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1974. – 340 б.

2.25. Хрестоматия по истории Греции. Под ред. Каллистова Д.П. – М.: Высшая школа, 1964. – 218 с.

2.26. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Ю.С.Крушкол таҳрири остида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 246 б.

2.27. Эллинизм: Восток и Запад. – М.: 1992. – 384 с.

III. Internet saytlari.

3.1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ellinizm>

3.2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr>

3.3. <https://az.wikipedia.org/wiki/Ellinizm>

3.4. <http://fikir.uz/blog/okno/18101.html>